

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

ERQULOVA SHOXISTA SIDIQJON QIZI

OLTINTEPA-SHAHARMONAND SHAHRI TARIXI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'qituvchi, Nasriddinov  
Shukrullo Nazrullayevich

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. JANUBIY O'RTA OSIYODA ILK SHAHARLARNING PAYDO BO'LISH XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1. O'rta Osiyo hududida ilk shaharsozlik va davlatchilikning tashkil topishining o'ziga xos xususiyatlari.....	9
1.2. Marg'iyyona va uning ilk shaharlari.....	18
<b>II BOB. OLTINTEPA – JANUBIY O'RTA OSIYONING QADIMGI SUG'ORMA DEHQONCHILIK MANZILGOHI SIFATIDA.....</b>	<b>29</b>
2.1. Oltintepa qadimi shahar yodgorligi: xronologiyasi va tipologiyasi.....	29
2.2. Oltintepa qadimi shahar yodgorligining moddiy manbalari.....	38
<b>XULOSA.....</b>	<b>46</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>50</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** XX asr oxirida xalqimizning asriy orzulari ro‘yobga chiqdi, O‘zbekiston mustaqillikka erishdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylandi, yangi jamiyat qurish uchun tub o‘zgarish va islohotlar amalga oshirila boshlandi. O‘zbekistonda barpo etilayotgan siyosiy tuzum demokratik, huquqiy davlat bo‘lsa, ijtimoiy tuzumni-qonun ustivor bo‘lgan fuqarolik jamiyatidir. O‘zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o‘tish, xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o‘rganish, undan xalqning umumiyligi va beba ho mulki sifatida foydalanishga keng yo‘l ochildi. Ma’naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning beba ho xazinasi va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Aynan ushbu ma’naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash hamda rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “....Tarix xotirasi,... milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”<sup>1</sup>. Shuningdek, Prezident I. A. Karimov o‘zining bir qator risola va nutqlarida “Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba - bu haqqoniy yoritilgan tarixdir” - deb ko‘rsatadi<sup>2</sup>.

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston tarixchilarini oldida haqqoniy tarixning yoritilishi lozim bo‘lgan masalalari ko‘lami ham aniqlandi. Mustabid sovetlar hukmronligi davrida, kommunistik mafkura ta’sirida o‘zbek xalqi tarixida kechgan jarayonlar sinfiylik, partiyaviylik prinsiplari asosida ma’muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto‘g‘ri talqin etildi. Bu davrga oid tadqiqotlarda o‘zbek xalqi tarixinining ayrim muammolari umuman chetlab o‘tildi. Bunday masalalar jumlasiga o‘zbek davlatchiligi tarixini kiritish mumkin.

---

<sup>1</sup> Qarang: Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид: барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 102.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Миллий истимол мафкураси – халы эътиюди ва буюк келажагига ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 14.

Bugungi zamon mustabid sovet tuzumi mafkurasi asoratlariga, eskicha fikr-lashga barham berish, tarixiy voqealar va jarayonlarni baholashda milliy manfaatlardan kelib chiqish zarurligini talab qilmoqda. O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini umumjahon taraqqiyoti nuqtai nazaridan, aniq tarixiy faktlarga tayanib, xolis va ilmiy asosda tadqiq etib, xalqqa yetkazish zaruriyati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1998-yil 26-iyunda bir guruh tarixchi va jurnalistlar bilan bo‘lgan uchrashuvida Respublika tarixchilari oldiga aynan shunday vazifa qo‘yildi. Ushbu masala O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyunida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qabul qilingan Qarorida ham o‘z ifodasini topgan. Unda xususan, o‘zbek xalqi va uning davlatchiligining haqqoniy tarixini o‘rganish, “eng qadimdan hozirga qadar davlatchilik tarixiy bosqichlarida hududimizda yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayoti masalalarini o‘rganish» lozimligi qayd etilgan<sup>3</sup>.

Ma'lumki, O‘rtta Osiyo tarixini o‘rganishda arxeologiya fani muhim rol o‘ynaydi. Chunki, mazkur fan orqali vatanimiz tarixinining eng qadimgi davrlardagi tarixinining dolzarb muammolariga oydinlik kiritiladi. Bu jarayonda yurtimiz va qo‘shti davlatlar hududidan topilgan yodgorliklar alohida ahamiyatga ega. Bunday yodgorliklar sirasiga Seleng‘ur, Siyobcha, Jarqo‘ton, Sopollitepa, Kaltaminor, Chust madaniyati, Anov I, Anov II, Qovunchi madaniyati, Namozgoh, Oltintepa kabi yodgorliklar kiradi.

Ana shunday qadimiy yodgorliklardan biri – Turkmaniston hudудида joylashgan Oltintepa manzilgohidir. Bu manzilgoh bronza davriga oid bo‘lib, uzoq yillar davomida yaxshi o‘rganilmagan yoki va e’tibordan chetda qolganligi ajablanarlidir.

---

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг “ЎзР ФА Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарорри // Ўзбекистон овози. 1998 йил 28 июль

### **Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o‘rganilish darajasi.**

Ma'lumki, bu manzilgoh bronza davriga oid bo'lib, o'z davrida O'rta Osiyodagi eng yirik aholi punktlaridan bir bo'lgan. Lekin, uzoq yillar davomida iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar tufayli tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolgan.

Mazkur yodgorlik sovet davrida G. Chayld, V. Masson, V. Sarianidi, M. Dyakonov, A. Kabirov, A. Asqarov, U. Rahmonov kabi tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu darajada o‘rganilgan<sup>4</sup>. Lekin, mazkur tadqiotlarning aksariyatida Olitepa manzilgohi tarixiga umumiyligi, ya'ni kompleks ravishda yondashilmaganligi ajabalanarli dir.

Masalan, ingliz olimi G. Chayldning ilmiy izlanishlarida Oltintepa yodgorlighining paydo bo'lish masalasi qadimgi Sharq arxeologiyasining bir bo'lagi sifatida qaralgan bo'lsa<sup>5</sup>, V. Dyakonov tadqiqotlarida Oltintepa manzilgohining shaharlashish jarayoniga asosiy e'tibor qaratilgan<sup>6</sup>. Lekin mazkur manzilgoh tarixini o‘rganishda rus olimi V. Masson tadqiqotlarini qayd etmaslik noto‘g‘ri bo‘ladi. Mazkur olim Olintepa manzilgohining vujudga kelish jarayoni, uning hududiy xususiyatlari, aholining joylashuvi, mashg‘ulotlari, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida kengroq ma'lumot bergen<sup>7</sup>ligi xarakterlidir.

### **Bitiruv malakaviy ishi mavzusining davriy chegarasi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi O'rta Osiyo shaharsozligi tarixida muhim rol o‘yngan Oltintepa manzilgohi tarixiga bag‘ishlangan bo'lib, uning davriy chegarasi sifatida eramizdan avvalgi III–I ming yilliklarni ko‘rsatish

<sup>4</sup> Qarang: Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. – Москва, 1956; Массон В. М. Экономика и социальный строй древних обществ» (в свете данных археологии). – Ленинград, 1976; O'sha muallif: Алтын-депе. – Ленинград, 1981; Дьяконов И. М. Города-государства Шумера. История древнего мира. Том 1. – Москва, 1983; O'sha muallif: Ранние деспотии в Месопотамии. История древнего мира. Том 1. – Москва, 1983; Сарианиди В. И. И здесь говорил Заратуштра. – Москва, 1992; O'sha muallif: В поисках страны Маргуш. – Москва, 1993; Кабиров А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990; Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993; Рахманов У. Керамическое производство эпохи бронзы южного Узбекистана. Автореф. на соискание канд. истор. наук. – Самарканд, 1996.

<sup>5</sup> Qarang: Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. – Москва, 1956. – 325 с

<sup>6</sup> Qarang: Дьяконов И. М. Города-государства Шумера. История древнего мира. Том 1. – Москва, 1983; O'sha muallif: Ранние деспотии в Месопотамии. История древнего мира. Том 1. – Москва, 1983.

<sup>7</sup> Qarang: Массон В. М. Экономика и социальный строй древних обществ» (в свете данных археологии). – Ленинград, 1976; O'sha muallif: Алтын-депе. – Ленинград, 1981.

mumkin. Chunki, aynan bronza davriga kelganda O'rta Osiyoning aksariyat hududlarida ilk shaharlar paydo bo'lgan edi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsad va vazifalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining asosiy maqsadi, mavjud manbalar yordamida Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Oltintepa manzil gohini kompleks tarzda o'rganishdan iborat. Shuni hisobga olgan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'rta Osiyo hududidagi ilk dehqonchilik va shaharsozlik madaniyatining vujudga kelish jarayonlari tarixini o'rganish;
- Bronza davri O'rta Osiyo shaharlari tipologiyasini tadqiq etish;
- Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Oltintepa manzilgohi tarixini mavjud arxeologik va moddiy manbalar asosida tadqiq etish;
- Oltintepa manzilgohining shahar topografiyasini tahlil qilish;
- O'rta Osiyo hududidagi ilk shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishga doir ilmiy xulosalar chiqarish.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining manbalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining manbalari sifatida Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Oltintepa manzilgohida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari, shuningdek, mazkur mavzuning u yoki bu qirralari aks etgan tadqiqotlar, asarlar va ilmiy maqola hamda tezislarni ko'rsatish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ob'yekti va predmeti.** Tadqiqotning ob'yektini bronza davrida vujudga kelgan Oltintepa manzilgohi tarixi, uning predmetini esa mazkur manzilgohdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o'zida aks ettirgan manbalar tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-uslubiy asoslari.** O'zbekiston mustaqilligi davrida tiklangan ilmiy-uslubiy (metodologik) tamoyillar – ob'yektivlik, tarixiylik, sabab va oqibatning dialektik bog'liqligi hamda milliy istiqlol mafkurasining me'yorlari tashkil etadi. Mavzuning mohiyatini, mahalliy (lokal) xususiyatlarini chuqur anglashda, tadqiq qilishda O'zbekiston mustaqilligi sharoitlarida mustahkamlanib borayotgan yangi tarixiy tafakkur va milliy

manfaatlar mavqyei nuqtai nazaridan yondashish ham jiddiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol mafkurasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

Muammoning turli masalalarini aniq va bevosita tadqiq etish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ijtimoiy-gumanitar sohalarga oid va metodologik ahamiyatga molik qo‘rsatmalaridan dastur sifatida foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarix fanini rivojlantirish yuzasidan qabul qilgan qarorlari tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot natijalarini manbalar asosida ilmiy jihatdan o‘rganish Vatan tarixini yangi fakt va dalillar bilan yanada to‘ldiradi. Shuningdek, tadqiqot natijasida olingan xulosalardan O‘zbekiston tarixi bo‘yicha darsliklar, adabiyotlar, qo‘llanmalar yozishda, oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavrlari va magistrлari uchun maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to’rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o’z ichiga olgan 50 sahifani tashkil etadi.

## **I BOB. JANUBIY O'RTA OSIYODA ILK SHAHARLARNING PAYDO BO'LISH XUSUSIYATLARI**

### **1.1. O'rta Osiyo hududida ilk shaharsozlik va davlatchilikning tashkil topishining o'ziga xos xususiyatlari**

Ilk davlatchilik nazariy masalalari ishimizning yuqori boblarida keltirilgan arxeologik manbalar, jumladan, uy-joy komplekslari, monumental inshootlar, dafn marosimlari bilan bog'liq manbalar va boshqalar hamda etnografik ma'lumotlarni atroflicha o'rganish O'rta Osiyo ilk jamiyatni va davlatchiligining tashkil topish yo'llarini ifodalashda muhim tayanch manba hisoblanadi.

Ilk sinfiy jamiyat va davlatning tashkil topish masalasi tarix fanining dolzarb va muammoviy masalalaridan sanaladi. Masalaga umumiyligi miqyosda yondashadigan bo'linsa, uning kelib chiqishi ilk sinfiy jamiyat va dastlabki davlatchilikning vujudga kelishi haqidagi masalalarini o'rganishda yozma manbalarning yo'qligi tufayli arxeologik, etnografik manbalarga tayanib ish ko'rishni taqozo qiladi. Biz ishimizning yuqori boblarida bu manbalar bilan bog'liq jamiyat ichki xususiyatlari haqida fikr yuritib, masalaning bir tomoni, ya'ni jamiyat ijtimoiy taraqqiyot yo'llarini ko'rib o'tdik, xolos. Ayni satrlarda esa ilk sinfiy jamiyatning ichki sotsial qiyofasi bilan bog'liq eng qadimgi davlatchilik tuzumining tashkil topish yo'llari haqidagi masalani ishlab chiqishga qaratmoqchimiz.

Avvalo, shuni alohida qayd etish lozimki, ilk sinfiy jamiyat va dastlabki davlatchilik haqidagi nazariyalar qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ammo uning tashkil topish va rivojlanish jarayoni o'ziga xos yo'llari bilan kechgan.

Davlat qurilishi borasida tanqidiy nuqtai nazarsiz qabul qilinadigan tayyor qolip va andozalar yo'q. Dunyoda aynan bir-biriga o'xshagan ikkita davlat ham yo'q. Bunday bo'lishi mumkin ham emas. Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va madaniy taraqqiyotining hosilasidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir<sup>8</sup>.

---

<sup>8</sup> Каримов И. А. Ватан саждагоқ каби мукаддасдир. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 6.

Tarixiy taraqqiyotga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odamzod birinchi mehnat qurollar yaratib, uning madaniyat tarixiga kirib kelganligiga qariyb 2 million yil bilan hisoblanadigan bo‘linsa, bundan 40 ming yillar avval esa urug‘chilik jamoasiga birlashib, uning ibtidosi hisoblanadi. Bu jarayonning evolyusion rivojlanishi tufayli insoniyat tarixidagi ilk davlat tuzilmalari esa bundan qariyb 5 ming yil oldin, bizning eramizgacha IV va V ming yillik chegarasida paydo bo‘lgan. Demak, davlatchilik insoniyatning nisbatan yaqin vaqtlardagi ixtirosidir. Inson o‘z ongli taraqqiyotining mutlaqo katta qismida davlat bo‘lib uyushgan jamiyatdan tashqarida yashagan. Ammo insoniyat jamiyati jahoning qaysi mintaqasida yashagan bo‘lmisin, tabiiy geografiya sharoitlari bilan bog‘liq holda har bir mintaqada oldin, ikkinchisida keyinroq bo‘lsa-da, ibtidoiy urug‘chilik jamiyat taraqqiyoti dinamikasini boshdan o‘tagan.

Shunday qilib, urug‘ (ibtidoiy urug‘chilik jamoasi) qon-qardoshlik va birgalikdagi jamoa mehnati, ishlab chiqarish mahsulotlariga birgalikdagi mulkchilik tamoyili bo‘yicha tashkil topgan, ijtimoiy munosabatlarning tengligi, urug‘ a’zolari manfaatlarining birligi va jipsligiga olib kelgan ibtidoiy jamoa tuzumining tashkil topgan boshlang‘ich bo‘lagini ifodalar edi. Dastlabki davlatchilikning tashkil topish yo‘llari ham ibtidoiy jamiyat negizida shakllana borgan ilk sinfiy tabaqlanishning o‘z davriga xos progressiv taraqqiyotini tushunish bilan bog‘liqdir.

Yuqorida aytilganidek, chorvadorlarning dehqonchilik, dehqonlarning esa chorvachilik mahsulotlariga nisbatan talabining oshib borishi oddiy ayriboshlashni keltirib chiqardi. Oqibatda chorvachilik xo‘jaligi dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Bu hodisa birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti edi. Ammo bu jarayon to‘xtab qolmadni va evolyusion yo‘l bilan o‘sib bordi. Natijada metallurgianing yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, kulolchilik charxining paydo bo‘lishi hunarmandchilikning shakllanishiga olib keldi, tovar ishlab chiqarish bilan bog‘liq savdo-sotiq ishlari yo‘lga qo‘yildi. Shu tarzda dehqonchilikdan hunarmandchilik xo‘jaligining ajralib chiqishi ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimotining tashkil topishiga olib keldi va iste’moldan tashqari ziyod mahsulotlar vujudga keldi.

Xullas, bu taraqqiyot yo'llarining rivojlanishi qo'shimcha qiymat bilan bog'liq mulkning o'sishiga va bu hodisa jamoa a'zolarining bir qismini ishlab chiqarish mehnatidan ozod bo'lishiga olib keldi. Bunday mehnatdan ozod va o'zlarini boshqa kishilar mehnati hisobidan yashaydigan kishilar kimlar edi? Shuni aytish lozimki, hukmron sinflarning paydo bo'lishi uzoq vaqt ni o'z ichiga olgan murakkab jarayon bo'lib, bu taraqqiyot yo'nalishi bir muayyan chiziqdan iborat bo'lman. Hatto ibtidoiy jamiyat tarkibiy tuzilishi ham bir xil bo'lman.

Sinfiy jamiyatning tashkil topish jarayoni mantiqan muayyan qonuniyatga asoslangan edi.<sup>9</sup> Ishlab chiqarish kuchlari jamiyatdagi madaniy-mafkuraviy yuksalish ayrim shaxslarning ishlab chiqarish mehnatidan ozod bo'lishini taqozo qilardi. Biroq bu degani jamiyat ishlab chiqarish mehnatidan qobiliyatli tashkilotchilarni, chuqur va keng fikrlovchi kishilarni, rassomlarni ishlab chiqarish mehnatidan ozod qilish degani emas, balki ziyod mahsulotlarni ishlab chiqarish mehnatidan ozod bo'lganlarning egallashi bilan belgilangan holda bu moddiy manbadan foydalanish evaziga emas, balki kim uni bajara olishiga bog'liq edi. Kimning qo'lida mushtdek birdam harbiy yoki mafkuraviy kuch bo'lsa, u tashkiliy masalalarni ham yechgan. Ularning ko'pchiligi esa begona mehnatni jamiyatga foydali bo'lman holatda ekspluatatsiya qiladilar. To'g'ri, yuksaklikka erishgan kishilarning muayyan qismi jamiyat taraqqiyotiga va uning texnik va madaniy rivojiga hissa qo'shishi ham mumkin.

Aynan shunday hissa qo'shish ham tezlikda borayotgan progress dastlabki sinfiy jamiyat sivilizatsiyasi bo'lib, u lotin so'zidan olingan "ives" – fuqaro, "ivitis" - fuqaroviylar, "ivitas" - fuqarolar jamoasi, shahar deb ataladi<sup>10</sup>.

Sinfiy jamiyatning tezlashish progressi varvarlikdan tubdan farq qilib, ko'pgina hududlarda esa ibtidoiy jamiyat an'analari uzoq saqlanib qoldi. Faqat jahonning ayrim hududlarida, ayniqsa, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarining rivoji boshqa hududlarga

<sup>9</sup> История Востока в шести томах. Том I. – Восток в древности. – М.: Восточная литература, 1997. – С. 31–32.

<sup>10</sup> История Востока в шести томах. Том I. – Восток в древности.... – С. 3 3; Аскаров А. А., Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура... – С. 23–24; Ртвеладзе Э. В., Саидов А. Х., Абдуллаев Е. В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси... – Б. 17

nisbatan tez o'sdi, ziyod mahsulotlarning to'planishiga imkoniyat tug'ildi, savdosotiyo'lga qo'yildi, yuqorida zikr etilganidek reguliyativ jamoalari vujudga keldi, yangi tartiblarni qo'lda ushlab truvchi hokimiyat apparatlari tashkil topdi, hududlar va jamoatchilikni qo'riqlaydigan, boshqa chegaralarni o'z tarkibiga bo'ysundiradigan harbiy kuchlar tashkil topdi, ularning rahbarlarini mutlaq hokim, oliv kohin darajasiga ko'tarishlar joriy qilindi, oqibatda dastlabki davlat apparatlari tashkil topib, uni va harbiy kuchlarni ta'minlash uchun turli hajmdagi soliq yig'imlari tashkil qilindi. Masalan, Qadimgi Shumerda mil. avv. III ming yillikda jamiyat yuqori tabaqalarini saqlash va ta'minlash maqsadida aholidan har xil yig'imlar to'planar edi. Shuningdek, jamoa yerlaridan bir qismi ibodatxonalar a'yonlarini boqish, saqlash, qurish uchun ajratilardi. Bunday yerlarda son-sanoqsiz kishilar mehnat qilardi. Xullas, oddiy aholi mehnatini ekspluatatsiya qilish jarayoni avjiga chiqib, antagonistik, ya'ni qarama-qarshiliklar sodir bo'lardi. Kohinlar, ibodatxonalar uchun ajratilgan yerlar hosildor va ular plug-omoch bilan ishlanardi, oddiy aholi primitiv qurollar bilan sifatsiz oriq yerlardan foydalanar va har xil yig'imlar to'lardilar.

Ma'lumki, Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Oltintepa manzilgohi tarixi 1955–1963 yillarda tadqiq qilina boshlagan. Bu yerdagi topilgan joylar va topilmalar haqida 1962, 1964, 1971 yillarda Masson, 1963–1964, 1969 yillarda Xlopin, 1965 yilda Sarianidi ishlarida ko'rsatib o'tgan. Bu qazuv ishlari natijasida bronza davriga oid ko'plab yangi ma'lumotlar va buyumlar qo'lga kiritildi. Oltintepa manzilgohi ilk marotaba 1929 yilda Xavanekey ekspedisiyasi tomonidan A. A. Seminovich (1946) boshchiligida tadqiq etila boshlandi. Janubiy Turkmanistonda tadqiqot olib borgan 14-bo'lim B. A. Kuftin boshchili gida Oltintepada ajoyib terrakota kolleksiyasini topishdi (1954–1956 yillarda). Shundan so'ng 1953 yilda A. F. Ganyavin ikkita katta bo'lma gan shurf tashlab, 3,5 metr qalinlikda qazib ko'rib, yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritadi. 1959–1962-yillarda qazuv ishlari A. F. Ganyavin, A. A. Marushenko, D. D. Durdiyev, Y. Atagarriyev, O. K. Berdiyevlar tomoni

dan tadqiqotlar olib boradi. Tadqiqotlar natijasida baquvvat bo‘lgan xom g‘ishtdan ishlangan devor qoldiqlari topadi. Shu bilan birga bu yerdan ikkita chet eldan keltirilgan ashyolar topadi. Shundan so‘ng olimlar bu hudud yirik markaz bo‘lganligiga ishonch hosil qilishadi. Shunday katta hududlardan yana biri Namozgohtepa bo‘lsada, Oltin-tepaning alohida ajralib turishi, uning ustki qatlami yaxshi saqlanib qolganligi bilan belgilanadi. Oltintepa shaharchasi 26 gektardan iborat bo‘lib, uning balandligi 17–22 metr balandlikdadir, madaniy qatlamning hajmi 8 metr dan 30 metrgacha bo‘lgan. 1965-yildagi qazuv ishlari asosan xom g‘ishtdan qurilgan devorlarni ochishga qaratilgan edi. Birinchi bo‘lib qazuv ishlarida stratigrafiya ishlariga katta e’tibor qaratilib, 3 ta gorizont vaqtani aniqlanadi. Namozgoh V Namozgoh IV (Oltin IV ), dastlabki uch-to‘rtinchchi qatlamda Sarianidi 1966 yilda V qatlamdan boshlab, 1967-yilda Masson VI qatlamda qazuv ishlarida ( shimolda ) yana Sarianidi 1967-yilda qazuv ishlarini olib boradi. 1967–1969-yillarda qazuv ishlari natijasida VII qatlamni ochishga muvaffaq bo‘ladi. 1971-yilda qazuv ishlari natijasida parallel ravishda ikki yo‘nalishda izlanishlar olib boradi. Hunarmandlar uylari X qatlamdan topiladi. 1972-yilda diniy marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan 3-qurilish ob‘yektiда qazuv ishlari olib borayotgan paytda dindor kishilarining qabrlari ochilgan bo‘lib, oltindan yasalgan buqa va bo‘rining bosh qismi topilgan. Shu bilan birgalikda parallel ravishda yuqori gorizontdan VIII–X qatamlar o‘rganilgan. Oltintepa manzilgohi Kopetdog‘ etaklarida Oqmozor irmog‘i yoki Meanachay irmog‘i atrofida joylashgan. Undan shimoli-janubroqda ikkinchi irmoq Chachay oqib o‘tadi. Suvning bunday ko‘p bo‘lishi natijasida bu yerlar o‘sha hudud aholisi tomonidan tezda o‘zlashtirilgan. Bu yerda VI ming yillikka tegishli Joytun aholi punktlari ochilgan. Manjuqlitepa Berdiyev tomonidan 1966-yilda, Qadimtepa Karakova, Valovik, tomonidan o‘rganilgan. Manjuqlitepa Oltintepadan janubda bo‘lib, undan 1,5 km uzoqlikdadir. Olintepa dan eneolit davriga oid

hunarmandlar uylari qoldiqlari birinchi qazuv ishlaridan topiladi. 1965–1966-yillarda Namozgoh V davriga oid 3 ta qurilish gorizonti ochilib, uni Oltin IV nomi bilan ataladi. Shu vaqtning o‘zida Namozgoh IV davriga oid to‘rtburchak ko‘rinishga ega Oltin IV manzilgohi ochiladi. 1970-yilda bu manzilgohning stratigrafiyasini o‘rganishda 4 metr kenglikda qazuv ishlari olib boriladi va Oltin V ochiladi. 1974-yilda bu hudud kengaytirilib, yangi ashyolar kiritish maqsadida amalga oshiriladi. Oltintepadagi asosiy qazuv ishlari. G‘arbiy devorlar ikki qavatli ko‘rinishga ega bo‘sada, bizning fikrimizcha, bu devorlar butun ko‘p qavatli uylarning massivi bo‘lgan. Bu devorlarning ortida esa oval shaklida kollektiv ko‘rinishdagi qabrlar topilgan. Ular geoksyur qabrlar ko‘rinishini takrorlaydi. Bu qabrlarda 2 ta xona bo‘lib, nisbatan oldinda joylashgani 282, qolganlari 281 hisoblanadi. Ikkala qabrdagi suyak qoldiqlari ham o‘ng tomonda joylashgan bo‘lib, bosh qismi shimolga qaragan. Qabrlar yonida 2 ta xum, Qoratepa usuliga mansub yozuv, 2 ta terrakota haykalchasi, 1 ta tosh taqinchoq, 1 ta misdan yasalgan yoyning uchi topilgan. Ikki mavsum davomida (1970–1974 yillarda) ko‘plab yangi ashyolar qo‘lga kiritilgan bo‘lib, ular Oltin X kompleksiga tegishlidir. Bu yerda joylashgan yarim xrom shaklidagigeoksyur ko‘rinishga ega idishlar, xumlarga bir xil mayda chizgilar bilan chizgi berilgan. Oltintepaning mudofaa devorlari bronza davriga tegishli bo‘lsada, bu devorlarning bo‘lgan bo‘lmaganligi haqidagi ma'lumotlar uzoq vaqtgacha ma'lum bo‘lmagan. Amorf ko‘rinishdagi oval shaklidagi chizgilarning bo‘lishi bu yerda devor umuman bo‘lmaganligi haqida ma'lumot beradi. Ammo, Oltintepada olib borilgan ko‘plab qazuv ishlari natijasida shunisi ma'lum bo‘ldiki, Oltintepa aholisi o‘z hududini himoya qilish maqsadida o‘rashgan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, Oltintepa manzilgohi o‘rta bronza (yoki Namozgoh V) davriga tegishli bo‘lib, shahar ko‘rinishga ega bo‘lgan, yuqori ichki jihatlari bilan ajralib turgan hunarmandchilik g‘oyalari ustun bo‘lgan markaz bo‘lgan. Turkmanis-

tonda ilk shaharlarning vujudga kelishi III ming yillikning oxiri II ming yillikning boshlariga to‘g‘ri keladi. Oltintepa manzilgohi qadimgi butun Sharq madaniyati beshiklaridan bo‘lgan. Unda qadimgi Mesopotamiya madaniyati va qadim Hind sivilizatsiyasi bo‘lgan Xarappaning ko‘rinishlari namoyan bo‘lgan. Qadimgi bu Oltintepa manzilgohi III ming yillik oxiri – II ming yillik boshiga tegishli bo‘lib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan manzilgoh bo‘lgan.

Urbanizatsiya sari rivojlanish evolyusiyasi Janubiy Turkmanistonda uch taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Masalan, ilk dehqon makonlari kichikroq ovul-lardan tashkil topgan bo‘lib, ularning maydoni 1-1,5 gettardan iborat edi. Eneolit davriga kelib esa yirik aholi punktlari tashkil topadi. Ularning maydoni 10-15 gettardan iborat bo‘lgan. Bundan so‘ng o‘ziga xos vohaning markazi sifatida atrofidagi kichik qishloqlarni o‘ziga itoat qildirgan, yirik aholi punktlari paydo bo‘ladi. Janubiy Turkmanistonda shunday markaz Oltintepada namoyon bo‘ldi<sup>11</sup>. Oltintepaning ijtimioy strukturasini o‘rganish borasida aholi yashaydigan uy-joy qurilish tuzilishi, jamoaviy dafn urf-odatlari bilan bog‘liq inventarlar, aholining oziq-ovqat iste’moli bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ham boy arxeologik ma’lumatlar to‘plandi. Shahar markaziy maydonida “aristokratlar kvartali”ning ochilishi, u bilan bog‘liq bo‘lgan mavzoleyning, qimmatbaho ashyolarning topilishi o‘sha zamon jamiyati sotsial stratigrafiyasining muhim elementi edi.

V. M. Masson Oltintepa qadimgi ilk shahar qatlamlaridan Namozgoh IV va V davriga tegishli yuzdan ortiq ayol ma‘budalariga chizilgan piktografik belgilarni topdi. Bu belgilar olimning fikriga qaraganda o‘zining shakli, xarakteri bo‘yicha xarappa va shumer hamda protoelam yozuvlaridan deyarli farq qilmaydi. Aynan shunday piktografik belgilardan 30 dan ziyodrog‘i Sopollitepadan ham topilgan edi. Afsuski, bu “yozuv”lar hamon mutaxassislar tomonidan atroflicha o‘rganilganicha yo‘q. Yozuvning mavjudligi esa ilk shahar xususiyatini belgilovchi muhim elementlardan biridir.

---

<sup>11</sup> Массон В. М. Протогородская цивилизации юга Средней Азии // – СА. – 1967. – №3. – С. 124.

Xususiy boylikning to‘plana borishi tufayli savdoning rivojlanishi, u bilan bog‘liq talonchilik, o‘sha zamonlarga xos bo‘lgan qaroqchilik, yangi hosildor yerkarni egallash uchun intilish, qishloqlarni talash singari alomatlar fartifikatsiyaning jadal rivojlanishiga omil bo‘ldi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan boy arxeologik ma'lumotlar asosida Marg‘iyonada dastlabki urbonik jarayonni, ya'ni ilk shaharlarning tashkil topish dinamikasini kuzatildi.

Fikrimizning xulosa qismida shuni aytib o‘tish lozimki, V. M. Masson Oltintepani ilk shaharmi yoki yo‘q, buni oydinlashtirmaydi<sup>12</sup>. Arxeolog A. Asqarovning fikricha, Oltintepa bronza davri jamiyatida shahar-davlat bo‘sag‘asida turgan ilk shahar, ibodatxona – shahar sifatida tasavvur qilish mumkin, deydi. Poytaxt yodgorlik – Oltintepada Namozgoh V davridan so‘ng shahar hayoti davom etmadi. Aholi shaharni asta-sekin tashlab, Murg‘ob vodiysi tomon ko‘chib ketganlar. Bunga dehqonchilik xo‘jaligini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan suv zahirasining Oltintepa hududida juda chegarali bo‘lishi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin<sup>13</sup>.

Marg‘iyonadagi yana bir muhim yodgorliklardan biri Gonur I hisoblanadi. Gonur I 20 hektar maydonga ega bo‘lib, bu yerda ark, yashash va hunarmandlar kvartallari joylashgan. U Gonur vohasining markazi bo‘lgan. Yodgorlik 1981–1983 yillarda V. I. Sarianidi tomonidan qazib o‘rganilgan<sup>14</sup>. Yodgorlikning atrofi taqir maydondan tashkil topgan bo‘lib, tadqiqotchining fikriga qaraganda, bu atrofda kulollar kvartali va ustaxonalari joylashgan. Bu yerdan 10 ta xumdon qoldiqlarining topilishi bundan guvohik beradi. Xumdonlarning ayrimlari ikki yarusli. Arkning sharqiy mavzeida maydoni 10x10 metr hajmdagi “qurbanlik” qilinadigan sig‘inish joyi kuzatilgan. Qishloqning qarama-qarshi mavzeida 120x130 metr hajmdagi to‘g‘ri burchakli qal'a topilib, uning 1,5 metr balandlikdagi devori saqlangan. Uning atrofi mudofaa devori bilan o‘rab olingan bo‘lib, burchaklarida diametri 7-8 metrga ega burj qoldiqlari saqlangan.

<sup>12</sup> Массон В. М. Альтын-депе... – С. 108.

<sup>13</sup> Аскаров А. А., Жўракулов М. Ж. Энеолит ва бронза... – Б. 33.

<sup>14</sup> Сариниди В. И. Древности страны... – С. 14.

Makonning eng baland joyida ark joylashgan bo‘lib, u to‘g‘ri burchakli shaklda 130x120 metr maydonga ega va uning joylanishi dunyoning to‘rt tomoniga qaratilgan. Ark o‘rab olingan mudofaa devorlari, burj va darvozalar bilan jihozlangan. Arkning ichki devori bo‘ylab to‘g‘ri burchakli plyastrlar o‘rnatilgan. Ularning o‘rtacha hajmi 110x90 sm bo‘lib, devor bo‘ylib bulardan 32-34 tasi joylashtirilgan. Arkning to‘rtala tomondagi ichki devorlari ham aynan shunday plyastrlar bilan jihozlangan.

Shaharcha arki hozircha to‘la qazib tugallanmagan bo‘lsa-da, topilgan ashayoviy dalilar, jumladan, monumental arxitektura inshooti bu yerda eng qadimgi ibodatxona bo‘lganligidan dalolat beradi.

Qazishmalar Gonurning qurilishi uch bosqichdan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Birinchi bosqichda saroy binosi, ikkinchi bosqichda oddiy jamoa a’zolari uchun xonalar va uchinchi bosqichda esa inshoot tashlandiq holga kelgandan so‘ng qabristonga aylanadi.

Topilmalar ichida sopol buyumlarning aksariyati naqshlanmagan. Sopol buyumlar sirtida odatda hayvon, ko‘pincha echki suratlari va o‘simpliklar sxematik tarzda tasvirlangan. Masalan, ikkala orqa oyoqlarda tik turgan echkilarning tasviri Mesopotomiya yodgorliklarida ham kuzatiladi. Bundan tashqari krest (salb) shaklidagi belgilar ham uchratilgan. Yodgorlikning eng yuqori qatlamidan Yaz I ning so‘nggi davriga oid qo‘lda yasalgan sopol idish parchalari topilgan. Turli tosh jinslaridan yasalgan har xil taqinchoqlar alohida o‘rinda turadi. Shuningdek, toshdan siyqalab yasalgan muhr qiziqarli bo‘lib, unda nur sochgan alomat qirralar tasvirlangan. Metall topilmalardan har xil bezaklar, jumladan, bilakuzuklar, munchoqlar, igna, bigiz, juvoldiz kabilar taqdim qilingan. Shuningdek, bitta qalin xochsimon muhr arkning 4-xonasidan topilgan. Shuningdek, shu xonadan albastrdan yasalgan oyoqli kichik ko‘zacha topilgan bo‘lib, bu ashyo Marg‘iyonadan tashqari Baqtriya va Sharqiy Eron yodgorliklariga ham xos xususiyati bilan ajralib turadi.<sup>15</sup> Metall buyumlardan, shuningdek, bargsimon paykonlar ham bor.

---

<sup>15</sup> Сарианиди В. И. Древности страны... – С. 32.

## 1.2. Marg‘iyona va uning ilk shaharlari

Marg‘iyona – O‘rta Osiyodagi katta tarixiy madaniy viloyat. Qadimda u Murg‘ob daryosining o‘rta oqimidagi hududlar va Marv vohasi (Turkmaniston)dan iborat bo‘lgan. Marg‘iyona g‘arbda Parfiya, shimoli-sharqda So‘g‘d, Sharqda Baqtriya, Janubda Ariya bilan chegaralangan. Poytaxti Qadimgi Marv hududida joylashgan. U qadimgi forscha – Margush, “Avesto” kitobida va “Behistun” qoyatosh yodgorligida qayd etilgan.

Marg‘iyona mamlakati tarixini dastlab arxeologik jihatdan o‘rganish ishlari XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. O‘sha yillardayoq jahon olimlari orasida ham bu mamlakat tarixi katta qiziqish uyg‘otgan edi<sup>16</sup>.

Marg‘iyona muzofotlarini arxeologik jihatdan bat afsil o‘rganish ishlari o‘tgan asrning 50-yillarning o‘rtalaridan boshlangan edi. Bu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan taniqli olim, arxeolog V. M. Masson Marg‘iyona kompleksini Namozgoh VI madaniyati tarkibidagi Murg‘ob variantiga ajratgan holda, uni esa ikki, ya’ni ilk ovchin va uning so‘nggi davrlariga ajratdi. Ilk ovchin miloddan avvalgi 1600–1300 yillar va so‘nggi (taxirboy) davrini esa mil. avv. 1300–100 yilliklar bilan sanalagan edi<sup>17</sup>. V. I. Sarianidi esa ularni uch kompleksga, ya’ni kelleli (mil. avv. 1750–1500 yillar), gonur (mil. avv. 1500–1250 yillar) va to‘g‘aloq (mil. avv. 1250–100 yillar) bosqichlariga bo‘ladi<sup>18</sup>. Ayni vaqtida Murg‘ob vohasining pastki oqimi muzofotlarida 100 dan ortiq so‘nggi bronza davriga mansub yodgorliklar topilib o‘rganilgan bo‘lib, ularni olimlar 10 ta kichik vohalarga bo‘ladilar.<sup>19</sup>

Janubiy O‘rta Osiyoda, jumladan, Marg‘iyona hududlarida olib borilgan ko‘p yillik dala tadqiqotlar bronza davrining so‘nggi bosqichlariga kelib, Marg‘iyona va Baqtriya hududlariga qabilalarning ommaviy ravishda kirib kelishi va hali hyech kim tomonidan o‘zlashtirilmagan bo‘z yerlarning o‘zlashtirilishi

<sup>16</sup> Жуковский В. А. Древности Закаспийского края. Развалины старого Мерва. – СПб., 1894; Pumpelly R. Explortion in Turkestan. – Washington, 1908, – V I. – P. 28..

<sup>17</sup> Массон В. М. Древнеземледельческая..., – С. 27–28.

<sup>18</sup> Сариниди В. И. Древности страны Маргуш. – Ашгабад: Ылим, 1990. – С. 74.

<sup>19</sup> Сариниди В. И. Древности страны Маргуш.... – С. 39–41; Масимов И. С. Новые исследования памятников эпохи бронзы на Мургабе // Древние цивилизации Востока. – Т., 1986. – С. 171–181; Удеумурадов Б. Н. К вопросу о выделении о седых земледельцев в среднем течении Мургаба // ИАН.ТССР. СОН. – 1989. – №2. – С. 6.

boshlanadi. Olimlarning xulosalariga qaraganda, Janubiy Turkmaniston qabilalari, balki Eron tekisliklarida yashagan aholi sharqiy yo‘nalish bo‘ylab migratsiya yo‘li bilan kirib kelib, qisqa vaqt ichida Murg‘ob daryosi havzasi, Amudaryoning o‘rta oqimi tarixiy Marg‘iyona va Baqtriya yerlarini egallash oqibatida bu hududlarda o‘nlab dehqonchilik vohalari tashkil topadi. Shu asosda o‘z hajmi jihatidan yirik yodgorliklar, jumladan, Oltintepa (46 ga), Namozgohtepa (70 ga), Ulug‘tepa (13 ga), Gonur 1 (20 ga), Jarqo‘ton (100 ga), Dashli 3 va boshqalari vujudga keladi. Vohalarning bunday ko‘pligiga qaraganda, V. I. Sarianidining xulosalariga ko‘ra, Namozgoh VI davri arafasida Janubiy Turkmaniston an'anaviy dehqonchilik vohalari Murg‘ob daryosi havzasida joylashadi va shu bilan muvoziy ravishda vohalar bilan birga yirik daryolarning havzalari ham o‘zlashtiriladi<sup>20</sup>.

Janubiy Turkmaniston va boshqa joylardan Marg‘iyona va Baqtriya hudud lariiga an'anaviy dehqon qabilalarning kirib kelishi, avvalambor, iqtisodiy zaruriyatdan kelib chiqqan bo‘lib, yangi serhosil yerlarni o‘zlashtirish va jamoalarni yashash imkoniyatlari bilan ta'minlashdan iborat edi.

Yuqorida zikr etilganidek, bronza davrining so‘nggi bosqichlariga kelib, Marg‘iyona va Baqtriya hududlariga o‘zga vohalar qabilalarining kirib kelishi boshlanadi va ko‘pgina yangi vohalar o‘zlashtirila boshlaydi.

Bu hududlarda ilk shaharlarning tashkil topishida muhim rol o‘ynagan qabilalar Murg‘ob havzasida joylashib, bu davr Namozgoh V va Namozgoh VI taraqqiyot bosqichining oxirlariga to‘g‘ri keladi. O‘scha zamonlardayoq bu jamoa lar dehqonchilikka eng ma’qul serhosil va sersuv vohalarni o‘zlashtirishga kirishadilar<sup>21</sup>. Ayni vaqtida Murg‘ob vohasida bronza davriga mansub 100 dan ortiq yodgorliklar o‘rganilgan bo‘lib, ular Baqtriyadagi singari o‘nlab vohalarni tashkil qiladi.<sup>22</sup>

Murg‘ob havzasida ko‘p yillar davomida tadqiqotlar olib borgan V. A. Sarianidining axborotiga ko‘ra, bu hududlarni o‘zlashtirish tarixi mil. avv. IV ming

<sup>20</sup> Сарианиди В. И. Древности страны Маргуш... – С. 51.

<sup>21</sup> Массон В. М. Экономика и социальный строй древних обществ» (в свете данных археологии). – Ленинград, 1976. – С. 23–28.

<sup>22</sup> Массон В. М. Памятники культуры архаического Дахистана... – С. 27.; Сарианиди В. И. Древности страны Маргуш... – С. 71.; Удеумурадов Б. Н. К вопросу о выделении о седых земледельцев в среднем течении Мургаба // ИАН ТССР СОН. – 1989. – №2. – С. 6.

yillikka borib taqaladi. Namozgoh V oxiri va Namozgoh VI davri arafasida esa Janubiy Turkmaniston dehqonchilik vohalaridan Murg‘ob daryosi havzasiga kirib kelgan jamoalar, voha irrigatsiya tizimidan daryolarning keng maydonlarini o‘zlashtiradilar.

Ko‘p yillar tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, har bir vohaning “poytaxt” sifatidagi yirik yodgorligi bo‘lib, uning atrofida esa kichik qishloqlar joylashgan. Bunday yodgorliklarning soni har bir vohada 3 tadan 30 tagacha bo‘lgan. Ana shundaylardan Gonur, To‘g‘aloq, Tohirboy va Ovchin vohalari bo‘lib, ularning atrofida 10 tadan 30 tagacha yodgorliklar joylashgan<sup>23</sup>.

Qadimgi Marg‘iyona hududlarida Namozgoh IV–VI bosqichlarida tashkil topgan ilk shaharlar xususiyatiga ega bo‘lgan yodgorliklar g‘arbda Qizil Arvatdan, sharqda Tejen daryosiga qadar yastanib yotgan hududlarda joylashgan Namozgoh-tepa, Oltintepa, Ulug‘tepa, To‘g‘aloq, Gonurtepa kabi ko‘p qatlamlı yodgorliklarda o‘rganilgan.

Namozgoh V davrining yirik poytaxti darajasiga ko‘tarilgan yodgorliklari Namozgohtepa bo‘lib, Janubiy Turkmanistonning Kopetdog‘ etaklarida Lunsuy vohasida joylashgan. Maydoni 70 ga, madaniy qatlaming qalinligi joylarda 34 metrgacha boradi. Yodgorlikda 1949–1952 yillari B. A. Kaftin boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya qazishmalar olib borib, O‘rta Osiyo eneolit va jez davriga oid arxeologik davriy sistemani ishlab chiqdi. 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab yodgorlikni V. M. Masson boshchiligidagi Sankt-Petrburg arxeologlar guruhi o‘rgandi<sup>24</sup>. Namozgohtepa madaniy qatlamlari 6 ta xronologik bosqichlarga (Namozgoh I–VI) bo‘lingan. Ulardan Namozgoh I–III eneolit davriga, Namozgoh IV–VI esa jez davriga tegishlidir. Bu yodgorlik manbalari bazasida oddiy qishloqdan yirik poytaxt darajasigacha bo‘lgan evolyusion taraqqiyotni kuzatish mumkin bo‘ldi. Namozgohtepadagi 34 metrli ma’dan qatlaming 4 metrga yaqin qatlami Namozgoh IV bosqichiga tegishlidir. Bu qatlamlar mil. avv. IV minginchilikdan II ming yillikning oxirlarigacha oiddir.

<sup>23</sup> Сариниди В. И. Древности страны Маргуш... – С. 58.

<sup>24</sup> Массон В. М. Миср и анская равнина в эпоху поздней бронзы и раннего железа // ИАН ТССР. – 1954. – №2. – С. 57.

Tepalikda ko‘p xonali binolarning qoldiqlari qazib ochilgan bo‘lib, eneolit, ya’ni Namozgoh I, II, III bosqichlariga qaraganda Namozgoh IV bosqichida bino-korlikning muayyan tarzda takomillashuv dinamikasini kuzatish mumkin bo‘ldi. Uylarning devorlari xom g‘ishtdan terilgan bo‘lib, har bir inshoot yonida esa kichik hovli borligi ma'lum bo‘ldi. Xonalarning ko‘pi bu davrda to‘g‘ri burchak shaklida qurilgan. Ular ichida supalar, o‘choqlar joylashgan, devorlarida narsalar qo‘yish maqsadida tokchalar o‘rnatalgan.

Namozgoh IV bosqichi sopol idishlari rangli bo‘lib, naqshlar orasida o‘simlik va hayvon suratlari uchraydi. Namozgoh IV davrining oxirlarida kulolchilik charxi kashf qilindi. Natijada shunday o‘zgarishlar yuz berdiki, oqibatda Marg‘iyonanining janubiy muzofotlari o‘z taraqqiyoti bilan Qadimgi Sharq madaniyatiga yaqinlashib qoldi. Sopol idishlar endilikda maxsus xumdonlarda pishiriladigan bo‘ldi. Kulol charxining hunarmandchilikda joriy qilinishi sopol buyumlar ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini yaratdi. Charxda yasalgan idishlar qo‘lda tayyorlangan sopol buyumlardan jiddiy farq qilib, bu o‘zgarishlar asosan dehqonchilik madaniyati uchun xarakterlidir.

Namozgoh IV davrining so‘nggi bosqichida me’morchilikda monumental inshootlar qurish kuzatiladi. Namozgoh V jez davrining yuksak rivojlangan davri bo‘lib, har sohada rivojlanishning yuqori darajasi kuzatiladi. Sopol ishlab chiqarish korxonalarining mahsuloti to‘la-to‘kis tovar xarakterini oladi. Sopollarning mutlaq aksariyati naqshsiz holda ishlab chiqarilar edi. Bu davrga kelib me’morchilikda monumental inshootlar qurish keng tus oladi. Xullas, shu tarzda tom ma’nodagi ilk shahar shakllanadi. Namozgoh V davrida yuz bergen ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar Namozgoh VI davrida yanada kengroq va chuqurroq davom etadi. Namozgohtepada so‘nggi davr qatlamlari kam uchratilgan. Buning sababi, deb yozadi A. Asqarov, aynan shu davrdan e’tiboran “metropoliyalarda”gi shahar hayoti yangi muzofotlarga, xususan, Murg‘ob vohasi va Baqtriyaga ko‘chadi<sup>25</sup>.

---

<sup>25</sup> Аскаров А., Жўракулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё / – Самарқанд, 1984. – Б. 40–41.

Arxeolog olimlar Namozgohtepani ilk shahar markazi sifatida e'tirof qiladilar<sup>26</sup>. Uning atrofida joylashgan Sho'rtepa, Qo'shtepa, Taychanoqtepa, yelkantepa, Tekkemtepa singari kichik qishloqlar iqtisodiy va balki siyosiy jihatdan ham Namozgohtepaga tobe bo'lgan bo'lishi mumkin<sup>27</sup>.

Xullas, Namozgohtepa tarixiy taraqqiyot pog'onalari jarayonida muayyan vohaning poytaxti, ilk shahar sifatida Janubiy O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan.

Marg'iyona arxeologiyasida Namozgoh madaniyati Qadimgi Sharq sivilizasiyasining ajralmas qismi bo'lib, bu davrda qabilalararo munosabatlar doirasi va chegarasi kengayadi. Marg'iyonaning qadimgi dehqonlari janubda Shimoliy-Sharqi Eron qabilalari bilan (Hisor, Shoxtepa, Tyuringtepa va boshqalar), shimolda esa O'rta Osyoning neolit davri Kaltaminor madaniyati jamoalari bilan yaqin aloqada bo'ldilar. Dehqonchilik, xonaki chorvachilik xo'jaligi, hunarmandchilikning turli sohalari, jumladan, kulolchilik, metallurgiya, to'qimachilik, qurilish, zargarlik kabi sohalari keng rivojlandi. Namozgoh V davrining so'nggi bosqichida kulolchilik charxi kashf etildi. Natijada sopol buyumlar ishlab chiqarish sohasida shunday sezilarli o'zgarishlar yuz berdiki, oqibatda O'rta Osyoning janubiy tumanlari o'z taraqqiyoti bilan qadigi Sharq madaniyatiga yaqinlashib qoldi<sup>28</sup>.

O'rta Osyoning janubidagi jez davri ilk shaharlaridan yana biri Oltintepa hisoblanadi. Yodgorlik Meana qishlog'i yaqinida joylashgan. Umumiyl maydoni 60 ga, yodgorlik shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga cho'zilib yotgan yirik tepalikdan iborat bo'lib, uning balandlik joyi 20 metrdan iborat. Yodgorlikni 1929 yilda A. A. Semyonov topgan, 1930 yillarda A. A. Marushenko, 1949 yildan M. Ye. Masson va 50-yillardan boshlab esa V. M. Masson tomonidan har tomonlama keng ko'lamda qazib o'rganilgan. Qazish ishlari davomida Oltintepaning qadimgi dehqonchilik madaniyatiga oid yodgorlik ekanligi ma'lum bo'ldi.

<sup>26</sup> Массон В. М. На пороге раннеклассового общества. Оазисы юга Средней Азии в первой трети 1 тыс. до н. э / Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М–Л., 1966. – С. 102.

<sup>27</sup> Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура... – С. 84.

<sup>28</sup> Аскаров А., Жўракулов М. Энеолит ва бронза... – Б. 150–151.

Bu yodgorlik ibtidioy jamoa tuzumi zaminida yuz bergan qator ijtimoiy, iqtisodiy va mafkura masalalariga doir yangiliklar bilan qadimgi Marg‘iyona va Baqtriya xalqlari tarixini boyitdi. Bu davrga oid mudofaa devorlari, monumental ibodatxona qoldiqlari, hunarmandchilik, uy-joy xo‘jalik komplekslari va boshqalar o‘rganildi.

V. M. Massonning xabar berishicha, bu yodgorlikda Namozgoh IV davri qatlami 4 metrgacha qalinlikda uchraydi. Oltintepada Namozgoh IV davriga oid 60 metr masofada mudofaa devorlari, ko‘pxonali xo‘jalik komplekslari o‘rganilgan. Oltintepaning “devorlar tepaligi” deb atalgan qismidan diniy-e’tiqod markazi – ibodatxona ochildi. Unin tashqi atrofi 5 metr balandlik dagi monumental mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Shuningdek, bu yodgor likda ko‘p xonali uylar qazib tekshirildi. Olimlar fikricha, bunday uylarda katta patriarchal oila jamoalari yashagan. Uylarning maydonlari keng, 50-70-100 m<sup>2</sup> keladi. Ular to‘g‘ri burchakli uy-joy va xo‘jalik xonalaridan iborat. Turar-joylarning markaziy yoki burchak qismida paxsadan o‘choq qurilgan.

Namozgoh V bosqichida hunarmandchilikning metallurgiya sohasi keng rivojlandi. Mehnat qurollari endilikda asosan, bronzadan yasaladigan bo‘ldi. Bronzadan randalash, o‘rish, parmalash qurollari yasaldi. Yasalgan bronza pichoqlariga va boshqa buyumlargacha turli shakldagi urug‘ jamoasi muhrlarini solish keng tus oladi. Bu muhrlar “totem” belgisi sifatida, ayniqsa, ayollar qabrida ko‘p uchraydi. Bu manzara, albatta, hali Namozgoh V davrida ham onalar mavqyeinin yuqoriligidan dalolatdir.

Muhim kashfiyotlardan yana biri – Oltintepadan topilgan ibodatxona edi. Bu inshoot paxsa va xom g‘ishtdan ishlangan zinapoyali ibodatxona bo‘lib, uning nomi Zikkurat deb ataladi. Aslida Zikkuratlar Ikkidaryo oralig‘ida Uruk davrida paydo bo‘lgan. Oltintepa inshooti katta to‘rt zinapoyali inshootga o‘xshaydi. Uning poydevori 55 metr, balandligi 12 metrdan iborat. Zikkuratning yonida bir necha xonalar ochilgan bo‘lib, ular Zikkurat xizmatkorlariga tegishli bo‘lsa kerak. Keng xonalarning birida muqaddas o‘choq bo‘lib, unda muqaddas olov yonib turgan. Yana bir xonaning tagidan qabrlar topilgan. Arxeologlar fikricha, qabrlarga

zikkurat – ibodatxonasining xizmatkorlari dafn qilingan. Namozgoh V bosqichida avvalgidek turli xil qimmatbaho toshlardan marjonlar, tumorlar yashash, hayvonlarning terrakotadan haykallarini yashash davom etgan. Bu davrda hayvondan transport vositasi sifatida keng foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Hayvon qo‘shilgan g‘ildirakli aravalar paydo bo‘ladi. Oltintepaliklarda ho‘kizga, bo‘riga topinish alohida o‘rin oladi<sup>29</sup>. Arxeologik topilmalar tarkibida eng muhimlari oltindan yasalgan buqa va bo‘ri boshchalaridan iborat haykalchalardir. Oltin boshli buqa haykali kohin qabridan topilgan. Uning ko‘zi lojuvard toshidan ishlangan bo‘lib, peshanasiga esa yarim oy shaklida feruza toshi qadalgan. Xuddi shunday bo‘ri boshi haykali ham topilgan. Bunday qiyofadagi haykalchalar Ikkidaryo oralig‘i Ur shahrida ko‘plab topilgan bo‘lib, bu topilmalar mil. avv. 2600–2500 yillar bilan sanalangan. Demak, Oltintepa topilmalari Qadimgi Shumer san‘ati va haykaltaroshligining madaniy ta’siridan dalolat beradi. Oltintepada Namozgoh V bosqichida ochilgan ibodatxona esa ilk shaharlarga xosdir. V. M. Masson Oltintepa V ning yuqori qatlamini o‘rganib muhim xulosalarga keldi. Shulardan Oltintepa Namozgoh V, ya’ni bronza davrining rivojlangan bosqichiga kelib, bu yerda ilk shahar madaniyatining shakllangan ligi haqidagi xulosa edi. Ilk shahar maydoni qator turar-joy mahallalariga bo‘linib, ular mahallalararo tor ko‘chalar bilan birlashti rilgan. Bu ko‘chalarning kengligi 1,5-2 metr. Bundan tashqari, shaharga kirish darvozalari va ulardan shahar markazidagi maydonga olib boruvchi magistral ko‘chalar barpo qilinganligi ma'lum bo‘ldi. Magistral ko‘chalarning kengligi esa 4-5 metr bo‘lib, bularda g‘ildirakli aravalar bemalol yurishi mumkin edi. Shunday qilib, Oltintepa qishlog‘i eneolit (Namozgoh I) va ilk bronza (Namozgoh IV) davridan boshlab, mudofaa devori bilan o‘rab olina boshlangan edi. Shahar xususiyatlarini belgilovchi elementlarning Oltintepada mavjudligi urbonik sivilizatsiyaning yorqin namunasi hisoblanadi. O‘zining kelib chiqishi bilan Shumer ibodatxonalarini eslatuvchi Oltintepa Zikkurati va uning yonida unga tegishli monolit ansambl kompleksning oltin boshli ho‘kiz va bo‘ri singari

---

<sup>29</sup> Массон В. М. Альтын-депе (исследов. 1965–1978) // Труды ЙОТАКЭ. Т. XVIII. – Л.: Наука, 1981. – С. 30–35.

topilmalar bilan birga ochilishi, bu joy, albatta, qadimgi ilk shahar mafkura markazi ekanligidan dalolat beradi. Mafkura markazining shakllanishi shahar, ya'ni urbanizatsiya jarayonining muhim elementi hisoblanadi.

Oltintepada kuzatilgan arxeologik manzara qishloqlarning galdagi taraqiqyot qonuniyat zanjirida yangi sifat bilan bog'liq jarayon – bu ilk shaharlarning vujudga kelishi edi. Shahar xususiyatlarini ifoda etuvchi tadqiqot va xulosalar G. Adams va G. Chayld asarlaridan ham ma'lum<sup>30</sup>.

Xullas, Gonur I maydoni 20 ga dan ziyodroq hajmdagi ilk shahar bo'lib, bu yerda ark – "kreml", u bilan bog'liq aholi yashash xonalari hamda hunarmandlar kvartallari, turli shakldagi muhrlarning topilishi bundan guvohlik berib turibdi. U Gonur vohasining markazi bo'lgan<sup>31</sup>. Bunga qo'shimcha qilib shuni qayd qilish lozimki, Gonur I atrofida olib borilgan dala tadqiqot ishlari tufayli yana 14 ta o'rtamiyon hajmdagi (№1-14) qishloqlar qalamga olingan va qisman tekshirilgan bo'lib, bu makonlar o'z davrida Gonur I markazga tobe bo'lgan bo'lishi mumkin. Gonur I ning shu davrga taaluqli boshqa yodgorliklardan kattaligi, uning shu muzofot, balki butun mamlakatning poytaxti bo'lganligiga shubha yo'q. Modomiki shunday ekan, bu shahar Gonur vohasi balki butun Margush mamlakatining poytaxti bo'lgan bo'lishi mumkin.

Marg'iyananining ilk shaharlaridan yana biri To'g'aloq I bo'lib, uning maydoni 12 ga, u shu vohaning poytaxt markazi bo'lgan. Bu vohada 1974 yildan boshlab olib borilgan dala tekshiruv ishlari tufayli 30 dan ko'proq yodgorliklar qalamga olinib, ularning ko'pchiligidagi qazishma ishlar bajarilgan va natijada To'g'aloq I da egallab yotgan maydoni va boshqa ilk shaharga xos xususiyatlari aniqlanib, uning shu voha markazi bo'lganligi aniqlandi<sup>32</sup>. Yodgorlik balandligi 4 metrdan iborat tepalikdan iborat bo'lib, uning markaz qismi maydoni 12 ga yaqin. Yodgorlikning janubi-sharq tomonida joylashgan "qal'a" qoldig'i kuzatilib, u uchburchak shakl holatidagi 200x100 metr maydona ega. Bu yerdan sig'inadigan sopol idish

<sup>30</sup> Adams R. Mc. The Evolution of Urban Society. Early Mesopotamia and Prehispanic Mexic –Chicago, 1966. – P. 11.

<sup>31</sup> Сарианиди В. И. Древности страны... – С. 33; Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура... – С. 29.

<sup>32</sup> Сарианиди В. И. Древности страны....– С. 34–45.

qoldig‘ining topilishi qiziqarlidir. Bu topilma aslida To‘g‘aloq I yonginasidan topilgan bo‘lib, bu yerda sig‘inish “qal’asi”, ya’ni o‘ziga xos ibodatxona borligi aniqlangan edi. Shuni izohlab o‘tish lozimki, To‘g‘aloq I sig‘inish ibodatxonasini V. I. Sarianidi protozardushtiylik xarakteriga ega ekanligini qayd etadi<sup>33</sup>. Qazishma ishlar tufayli ma'lum bo‘ldiki, To‘g‘aloq I uncha katta bo‘lmagan makon bo‘lib, balandligi 1,5 metr tabiiy tepalikda bunyod etilgan va u 3 ta davriy qurilishdan iborat.

Uchala qurilish gorizontlaridan olingan arxeologik ashyolar bronza davrining so‘nggi bosqichiga, ya’ni mil. avv. II ming yillikning oxirlariga doir ekanligi aniqlandi<sup>34</sup>.

Asosiy tepalikning shimoli-sharq tomonida kulollarning ikkita kvartali borligi aniqlanib, ularni shartli shimoily va janubiy kvartallar deb yuritiladigan bo‘ldi. Shuni qayd etish lozimki, kulolchilar kvartallari va ustaxonlari asosiy makondan tashqarida joylashgan. Xumdonlar asosanikki yarusli shaklda taqdim qilingan. Hammasi bo‘lib bu yerda 11 ta xumdon to‘la qazib tekshirilgan. Bularni ikki bosqichga bo‘lish mumkin. Bu xumdonlarning eng qadimgilari bronza davriga, ya’ni Gonur I davriga, so‘nggi davrlarga taalluqlilari esa ahamoniylar zamoniga to‘g‘ri keladi.

To‘g‘aloq I sopol ashyolari kompleksi ham umuman qaralganda, Gonur davriga yaqin turadi. Makondan antrofomorf va zoomorf shaklidagi mayda terrakota plastikalari ham topilib, ular orasida shikastlangan 20 dan ziyod ayol haykalchalari bor. Zoomorflar shaklidagi haqkalchalardan ham bir nechtasi topilgan bo‘lib, ancha sxematik tarzda yasalgan holda ular sig‘inish idishlarning sirtlariga ham yopishtirilgan. Bu shakllarning ayrimlarida ikki hurkakli tuyalar tasvirlangan. Aynan shunday sig‘inish idishlari Baqtriyada ham keng tarqalgan bo‘lib, ayrim holatlarda ularni qabrlarga ham qo‘yishgan. To‘g‘aloq I arxeologik kompleksi tarkibida toshdan ishlangan kichik idishlar, ko‘pincha albastrdan yasalgan idishchalar uchraydi. Bundan tashqari, har xil toshlardan ishlangan turli

<sup>33</sup> Сариниди В. И. Древности страны Маргуш.... – С. 100–105; Сариниди В. И. Храм и некропол Тиллятепе. –М, 1989. – С. 52.

<sup>34</sup> Сариниди В. И. Древности страны Маргуш.... – С. 40–43.

taqinchoqlar hamda bargsimon shaklida ikki tomoni obdon kertilgan paykonlar ham mavjud. Metall buyumlardan silliq bilak uzuk, mix, to‘g‘nog‘ich kabilar topilgan bo‘lib, bu ashyolar Baqtriya kompleksiga o‘xshashligi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, To‘g‘aloq I kompleksining markaziy qismi qal'a inshootidan iborat bo‘lib, u to‘g‘ri burchak shaklida bo‘lib. qal'a devor burchaklarida burjlar bilan jihozlangan edi. Qal'a devorining sharqiy va g‘arbiy tomoni bittadan yarim aylana burjlar o‘rnatilgan. Qal'aning shimolida qator uylar bo‘lib, ular V. I. Sarianidining fikricha, tantana va hashamat uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, bu binolar yagona kompleksga taalluqli edi<sup>35</sup>. Qal'aning devor qalinligi 4,5 metrdan iboratligiga qaraganda, uning balandligi 10-12 metr bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Hashamat va tantana uchun qurilgan binolarda pilonlar, ya'ni katta gul ustunlar topilgan. Tashqi dushmanidan himoya uchun qal'a devorlarida shinaklar mavjud. Qal'aning sharqiy qismida olovga sig‘inadigan asosiy sajdagoh bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda To‘g‘aloq I ibodatxonasining umum rejalashtirilishi Marg‘iyonada binokorlik san'atining yuksak rivojlanishidan dalolat bergen holda Qadimgi Sharq me'morchiligining Marg‘iyona maktabining mavjudligini namoyon etadi.

Xullas, Marg‘iyona mamlakatida bronza asrining so‘nggi davrida Oltintepa, Namozgohtepa, Jarqo‘ton singari ilk shaharlar aynan tashkil topmagan bo‘lsa-da, Gonur I, To‘g‘aloq I yodgorliklari ilk shahar xususiyatini anglatuvchi belgilari bilan boshqalardan ajralib turardi. Demak, bular Marg‘iyona va Baqtriya arxeologik komplekslarini yagona ildizga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, mil. avv. II ming yillikda an'anaviy o‘troq dehqonchilik markazi Janubiy Turkmanistondan Murg‘ob daryosining qadimgi o‘zani bo‘ylab o‘zlashtirilib, Bexustin yozuvlardida qayd etilganidek, gullab yashnagan “Margush mamlakati”ga aylanadi.<sup>36</sup>

---

<sup>35</sup> Сарианиди В. И. Древности страны... – С. 102.

<sup>36</sup> Сарианиди В. И. Древности страны... – С. 5.

Xullas, O'rta Osiyoning janubiy sarhadlarida tashkil topgan ilk shaharlar asosan, yuksak rivojlangan o'troq, sug'orma dehqonchilik mag'zidan kelib chiqqan madaniyat va iqtisodiy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga keldi. Fanda uzoq vaqtlar muammoligicha qolib kelgan bu masalaga aynan keyingi o'n yilliklarda aniqlik kiritildi.

O'rta Osiyo janubiy mintaqalarida dastlabki shaharlashish va bilan bog'liq ilk davlatchilikning vujudga kelish dialektik va evolyusion yo'llari va bosqichlarini isbotlab berishda arxeologiya fanining imkoniyatlari cheksiz ekanligi namoyon qilindi. Natijada ma'lum bo'ldiki, ilk sivilizatsiya o'choqlari nafaqat Hind, Nil, Xuanxe, yefrat va Tigr havzalarida, shuningdek, O'rta Osiyoning janubiy, xususan, O'zbekiston, uning janubiy sarhadlarida ham Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi singari mustaqil sivilizatsiya o'choqlari vujudga kelganligi isbotlandi va jahon mutaxassislari tomonidan tan olindi.

Avvalo, Jarqo'ton ilk shahri va boshqalarning manbalarini atroflicha tahlil qilish tufayli bu sarhadlarda sodir bo'lgan ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari oydin-lashtirildi va ma'lum bo'ldiki, bu jarayon o'z navbatida mintaqalarda tashkil topgan ilk shaharlarning Qadimgi Sharqdagi «nom»lari kabi vohalarda kichik-kichik davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, diniy, mafkuraviy markazlari sifatida shakllanganligi aniqlandi. Demak, ilk shaharlarning tug'ilishi ilk shahar va davlatchilik madaniyatining shakllanishi yagona dialektik jarayon ekanligi boy manbalar asosida isbotlandi.

## **II BOB. OLTPINTEPA – JANUBIY O’RTA OSIYoNING QADIMGI SUG‘ORMA DeHQONChILIK MANZILGOHI SIFATIDA**

### **2.1. Oltintepa qadimiy shahar yodgorligi: xronologiyasi va tipologiyasi**

Ibtidoiy jamiyatning so‘nggi bosqichi taraqqiyoti davrida ayrim hollarda qabilaviy birlashmalar (qabila ittifoqlari, konfederatsiyalari) tashkil topgan. Birinchi davlat birlashmalari odatda biron bir hududiy yoki bir necha hududiy birlashmalarni o‘z tarkibiga olgan. Bunday davlatlar barqaror bo‘lishi uchun tabiiy chegara – tog‘, ko‘l, daryo hamda sug‘oriladigan magistral kanallar bilan chegaralangan. Aynan shunday chegaralangan kichik davlatlarning tashkil topishini “nom”lar deb shartli yuritilinadi.

Nom – yunoncha mamlakat, viloyat, okrug ma'nosida qo‘llaniladi. Qadimgi Misrda ma'muriy okrug (misrcha sepat) Misr davlati yagona irrigatsiya tizimini barpo etish va ishlashi uchun zarur bo‘lgan siyosiy birlashmalar – nomlardan tashkil topgan edi. Har bir nomning aniq belgilangan chegarasi, siyosiy va diniy markazi, qo‘smini, gerbi va homiy xudolari bo‘lgan. Nomning ma'muriy apparati nomarxga bo‘ysungan. Aynan shunday nom tipidagi davlatlar mil. avv. III ming yillikdayoq yefrat daryosining pastki oqimlarida va Misrda tashkil topgan edi. Nom ibodatxonadan iborat markazga ega bo‘lgan. Ibodatxona bosh alloh-taolonng uy-joyi hisoblangan. Uning atrofida ma'muriyat jolashgan, oziq-ovqat va moddiy bog‘liq omborxonasi, qurol-aslahalar ombori, shu atrofda muhim hunarmandlar ustaxonasi joylashgan bo‘lib, ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan holda, shu tarzda birlamchi shahar, kichik bir davlatning poytaxti tashkil topadi. Bu markazning dastlabki vazifasi (umuman ilk sinfiy jamiyat shaharlari) ziyod mahsulotlar zahirasini yaratish va uni realizatsiya qilishdan iborat bo‘lgan. Shaharning boshqa funksiyalari (harbiy, siyosiy, sig‘inish va boshqalar) boshqalardan holi tarzida bo‘lgan. Tabiiyki, shaharlarning tashkil bo‘lish jarayoni sinfiy jamiyat va davlatning tashkil topish xronologiyasiga deyarli to‘g‘ri keladi<sup>37</sup>.

---

<sup>37</sup> Аскаров А. А., Ширинов Т. И. Ранняя городская культура... – С. 144.

Harbiy turmush qarindosh qabilalarning yagona xalqqa birlashishga ko‘maklashdi. Bu o‘z navbatida eng kuchli qabila harbiy boshliqlari (dohiyalar) tomonidan boshqa qabilalar hokimiyatini zo‘rlik bilan bo‘ysundirilishiga olib keldi. Qadimgi Misrda, Akkadda, skiflarda, Mezoamerikada davlatchilik mana shunday tartibda qaror topdi.

Din, ayniqsa, eng qadimgi xalqlarda, davlatchilikning paydo bo‘lish jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ibtidoiy jamiyatda har bir urug‘ o‘z otashparastlik diniga sajda qilar, o‘z “totem”iga ega edi. qabilalar birlashish davrida diniy normalar oliv hokimiyatning mustahkamlanishiga ko‘maklashdi. Yangi hukmdorlar sulolalari qabilalarni umumiy diniy aqidalar bilan birlashtirishga urindi.

Davlatning paydo bo‘lishi eng avvalo aholining umumiy manfaatlarini amalga oshirish zaruriyat bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu jarayon har xil davrlarda turlicha yuz berdi.

Davlat paydo bo‘lishiga olib kelgan omillarning o‘ziga xosligi davlatning tipologik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, Misr, Kichik Osiyoning davlatlari, Mesopotomiya, Mezoamerika va tog‘li Peruning birinchi birlamchi shahar-davatlari va boshqa hududlarda tashkil topgan o‘rta asrlar davatlari buning misolidir.

Insoniyatga ma'lum bo‘lgan dastlabki davlatlar 5 ming yildan 2 ming yilgacha oldin dunyoning turli geografik mintaqalarida bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган holda, odatda yirik daryolarning vodiylarida paydo bo‘ldi va madaniy sivilizatsiya markazlariga aylandi. Qadimgi Mesopotomiya (Dajla va Frot daryolari oralig‘i), shuningdek, boshqa qit'alarda hamda Markaziy Osiyo davatlari, O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i mana shunday davlatlar edi.

Davlatning shaklanishi – uzoq davom etgan jarayon bo‘lib, u har xil xalqlarda turli yo‘llar bilan bordi. Davlatlarning paydo bo‘lishini olimlar asosan ikki yo‘l bilan borganligini e’tirof qiladilar. Masalan, T. V. Kashanina davlat paydo bo‘lishining ikki yo‘lini ajratib ko‘rsatib, “Sharq yo‘li”ni “davlat hokimiyat”,

“yevropa yo‘li”ni esa “davlat mulkchilik” yo‘li deb atadi<sup>38</sup>. Bu ikki yo‘lning birinchisi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u davlat paydo bo‘lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li” bo‘lib, unda iqtisodiyotning asosini irrigatsiya dehqonchiligi tashkil etgan. Bunda yer va irrigatsiya inshootlari davlatning mulki bo‘lgan. Dehqonchilik jamoasi jamiyatning asosiy bo‘g‘ini edi. Aholining qadimgi jamiyatning birinchi rivojlanish yo‘llarini o‘rganishda Shumer jamiyati manbalarida yaqqol ko‘rish mumkin. Shumerliklarda iqtisodiy jihatdan jamiyat sektorlarga bo‘lingan edi. Uning biriga yirik xo‘jaliklar kirgan holda, qaysiki, ularga ibodatxonalari hamda davlatni ifodalovchi yuqori mansabdar shaxslar kirar edi. Bu xo‘jaliklar asta-sekin birinchi yuz yillikda jamoa boshqaruvidan chiqa boshlagan. Boshqa bir sektorga dehqonchilik yerlari kirgan holda ozod aholi o‘zaro boshqarishda ishtirok qilardi. Boshqa bir sektorga qaram yerlar kirib, ozod aholi jamoa boshqaruvida qatnashgan. Bunday yerlar hududiy jamoalarga taalluqli bo‘lib, katta oila jamoalari patriarch boshchiligidagi boshqarilardi. Uy jamoalarininguchinchi-to‘rtinchi avlodlari bo‘lingan holda yashasalarda, ular bir-biriga qarindosh hisoblanib, o‘zlarining o‘tmish sajdagohiga ega bo‘lib, o‘zaro yordam an'analarini davom ettirardi.

Keyinchalik birinchi xo‘jalik sektori davlat mulki bo‘lib qoladi va ikkinchi sektor xo‘jaligi esa yuqori mansabdarlar mulki bo‘lib, hududiy jamoalarga qaragan holda oila boshlig‘i tasarrufiga qarardi. Amalda esa bu yerlar bilan hududiy jamoa a'zolari jamoa nazorati asosida boshqarilardi. Jamoatchilar, ya'ni ikkinchi sektor ozod aholisi (jamoa - xususiy) odatda o‘zlari va oila a'zolari yordami kuchi bilan yerga ishlov berardilar. Biroq uy jamoalari va qavm-qarindoshlar jamoalari orasida mulkiy tengsizlik mavjud edi. Bu hodisa ayrim oilalarning ijtimoiy mavqyeidan qaram edi. Masalan, ayrim jamoatchilar kohinlar, oqsoqollardan iborat bo‘lishi mumkin edi. Ayrim hollarda tasodifiy ravishda ayrim jamoa a'zolari o‘zlarining ishbilarmonligi tufayli ham o‘z mulki bo‘yicha xo‘jayinlik qilishi mumkin edi. Harakatdagi mulk, uydan farqli ravishda yer maydoni, xurma plantatsiyasi har bir

---

<sup>38</sup> Кацапина Т. В. Происхождение государства и права. Современные трактовки и новые подковы. – М., 1999. – С. 45–50.

oila a'zosiga tegishli alohida shaxs mulki edi. Jamoatchilarning ayrim oilalari o'sha vaqtdagi o'zaro yordam odati bo'yicha yoki mahsulotni ayrim omadsiz jamoatchiga qarzga berish tufayli begona mehnatdan foyda ko'rardi. Bunday kishilar ayrim hollarda o'z qullariga ham ega bo'lganlar.

Keyinchalik davlat sektoriga aylangan yerkunda o'rnashgan aholi shartli yer egalari edi, xolos. Sababi, yer ularga nafaqat kun ko'rish uchun, shuningdek, ibodatxonalar uchun xizmat haqi yoki hokimiyat kohinlari uchun xizmati evaziga berilardi va hokazo. Shu bilan birga yer xizmati uchun ham individual tarzda ishslash uchun ham berilardi. Bunday yerga ota-bobolardan tashqari individual ishslash uchun ham berilardi. Bu vaqtida mahsulot qo'shimcha daromadi shu yerni ijaraga berish foydasi bilan teng kelardi. Biroq bu yerlar ma'muriyatning ixtiyori bilan olib qo'yilishi yoki almashtirilishi ham mumkin edi. Ko'pgina mehnatkashlar davlat sektoridan yer ololmasdan faqat ulush olardi. Shu bilan birga davlat sektorida band kishilar o'ziga to'q kishilar bo'lib, ular boshqalar mehnatidan foydalananardilar va ayol qullarga ega edilar. Bunday kishilar aslida amaldorlar va harbiylarning yuqori mansabdlorlari, mutaxassislashgan hunarmandlar hisoblanar edi. Ularga ham ibodatxona yerlarida ishlovchi dehqonlar yoki boshqaruv tashkiloti xo'jalik mahsulotidan berib turilardi. Ular o'z xizmat pillapoyalari bo'ylab o'sib borar va ma'muriy apparatlar ham ular hisobidan to'ldirilardi. Ularning ayrimlari davlat sektorida o'z yerlariga ega bo'lsa-da, biroq amalda davlat xo'jalik sektorini boshqarardi. Shuning bilan bir vaqtida davlat sektori kishilari orasida o'z quli va qul ayollarga ega bo'lgan kishilar ham bo'lib. Bu qullarni sotishi va sotib olishi mumkin edi.

Mil. avv. III ming yillikda yevfrat daryosining quyi oqimida tashkil topgan jamiyat tabaqalarga bo'lingan edi. Yuqori tabaqaga jamoaning ozod a'zolari kirib, ular jamoatchilik yer mulkiga egalik boshqaruvida, dastlab hukumat boshlig'i sifatida saylangan holda qatnashgan. Undan keyingi pastroq tabaqani ibodatxona yoki hukumat xo'jaligini boshqaruvchi shaxslar tashkil qilardi. Ular xizmat haqi olgan holda yer mulkiga ega bo'lmasligi ham mumkin yoki ulush olishi mumkin edi. Bundan tashqari qullar ham bo'lib, tabaqadan tashqari turardi, qaysiki, ular

bilan hayvon qatorida munosabatda bo‘linar edi. Aslida ular huquqsiz, alohida tabaqani tashkil qilardi. Jamiyatning shunday tartibda tabaqalanishi eng qadimgi davrga tegishli edi.<sup>39</sup>

Shu masalani alohida qayl etish lozimki, ilk sinfiy jamiyat va dastlabki davlatlarning tashkil topish yo‘llari turlicha bo‘lishidan qat’iy nazar bu jarayonning kechishi Qadimgi Sharqqa xos bo‘lib, O‘rta Osiyoda ilk sinfiy jamiyat va dastlabki davlatchilikning tashkil topishi Sharq bilan chatishgan, o‘xshash holatda yuzaga kelgan.<sup>40</sup>

O‘rta Osiyoda dastlabki sinfiy jamiyat bilan bog‘liq ilk davlatchilikning tashkil topishi haqidagi masalalar bilan V. V. Bartold, S. P. Tolstov, Ya. G. G‘ulomov, V. A. Shishkin, A. V. Arsikovskiy, M. M. D'yakonov, I. M. D'yakonov, A. A. Roslyakova, A. A. Marushenko, V. M. Masson va boshqalar shug‘ullanib, ahamoniylar istilosiga qadar bu yerda yirik davlat birlashmali bo‘lganligi haqidagi ayrim xulosalarni chiqarishib, bu ma'lumot manbalar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida, shuningdek, boshqa bir qator asarlarda muayyan tarzda yoritilgan. Ammo shu yillarda arxeologik manbalarning yetishmasligi tufayli masala chuqur, atroflicha tadqiq qilishga imkniyat kam edi. 80-90- yillarda keng ko‘lamda olib borilgan arxeologik ishlar tufayli yangi, boy manbalar qo‘lga kiritilinib, bu masalaga yangi yondashuv asosida qaralib, bir qator asosli oydinliklar kiritilinishiga erishildi. Umumiyligi miqyosda qaralganda, o‘sha zamon olimlarimizning O‘rta Osiyoda tashkil topgan ilk sinfiy jamiyat va davlatchilik, xususan, siyosiy birlashmalar bo‘lgan Xorazm va Baqtriya haqidagi nazariyalar tarixan haqiqatga zid emas edi.

Olimlarimizning so‘nggi yillardagi ilmiy xulosalariga qaraganda, O‘rta Osiyoda davlatchilikning tashkil topishi uzoq, bir necha yuz yilliklarni o‘z ichiga oladi. Aynan shu davrda ibridoiy jamiyat jadal tarzda yemirila borib, Baqtriya singari yirik siyosiy birlashmalar tashkil topadi. Bu jarayonning sodir bo‘lishi uchun O‘rta Osiyo jamiyati uchun ham Qadimgi Sharq, xususan, Yefrat va Dajla

<sup>39</sup> История Востока в шести томах // Восток в древности. – М.: Восточная Литература, 1999. – С. 34.

<sup>40</sup> Аскаров А. А., Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура... – С. 133.

daryolari oralig‘i jamiyati singari evolyusion taraqqiyotni o‘z boshidan kechirgan. Bu haqdagi tafsilotlarni yuqoridagi satrlarda keltirib o‘tdik.

Xullas, evalyusion (peshma-pesh) taraqqiyot tufayli ibtidoiy jamiyat negizida ilk sinfiy jamiyat tarkib topa borib, siyosiy ma'muriyat shakllana bordi, jamiyat tepasida siyosiy strukturadan iborat boshqaruv tashkil topadi va ishlab chiqarishdan hosil bo‘lgan moddiy boylik ular qaramog‘ida to‘planib, jamiyat yetakchilari asta-sekin ham siyosiy, ham iqtisodiy boshqaruv funksiyalarini o‘z qo‘llariga oladi. Shunday qilib, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik vujudga kelib, barcha hokimiyat oila – urug‘doshlik doirasi bilan bog‘liq bir guruh kishilar qo‘lida to‘planadi.

Balkim, shunday bosqichni namozgoh IV–V davrlariga taalluqli jamiyatlar o‘z boshidan kechirgan bo‘lishlari mumkin. Aynan shu davrda monumental inshootlar paydo bo‘ladi, endilikda mehrob bilan bog‘liq sajdagoh uylar paydo bo‘lib, keyinchalik ular monumental ibodatxonalarga aylanadi. Bu davrga kelib monumental saroy inshootlari paydo bo‘ladi. Masalan, Oltintepa, Gonur-1, To‘g‘aloq-21, Jarqo‘ton, Dashli-3 yodgorliklarini shular jumlasiga kiritish mumkin. Diniy aqidalar bilan bog‘liq sajdagoh ibodatxonalar va ular bilan bog‘liq buyumlarni tobora ko‘payib borishi esa jamiyatda kohinlarning rolining oshib borishini ko‘rsatardi.

O‘rta Osiyo jamiyati ijtimoiy hayotidan dalolat beruvchi muhrlar paydo bo‘lib, bu hodisa mulkchilik bilan bog‘liq oila – urug‘-aymoq an'analarining shakllanishidan dalolat berardi. Katta urug‘-aymoqlar orasida yer, mulk, suv uchun bo‘lgan mojarolar ularning bir nechtasining birlashishini hayotning o‘zi talab qilar ‘di. Bu jarayonning doimiy o‘sib borishi ularning qabilaviy birlashmalarga uyushishini talab qilardi. Ayniqsa, tashqiy harbiy xavf-xatarlar qabilaviy uyushmalarning tezlashishiga olib keldi. Bunday turmush tarzida harbiy yetakchilarning roli oshib bordi va ular barcha huquqlarni qo‘lga olib, davlat apparatini bo‘ysundirish va obro‘ qozonish mashinasini shakllantirdi. Mana shunday tarzda “chifdom” instituti yuzaga kelib, bu hodisa siyosiy ma'muriyatning, ya’ni “protodavlatchilik”ning tashkil topishidan dalolat berar edi. “Chifdom”

haqidagi ijtimoiy tushuncha ingliz sotsiologlari tomonidan ishlab chiqilgan va fanga kiritilgan<sup>41</sup>.

“Chifdom” ingliz talqinida dohiylar ma’nosini bildirib, davlatchilikning tashkil topish arafasidagi siyosiy (ustqurma) struktura bo‘lib, uni ilohiy lashtirilgan daho boshqargan, ammo hali ezish va majbur qilish singari kuchli apparat shakllanmagan edi.

A. Asqarov va T. Shirinovlarning tahlillariga qaraganda, O‘rta Osiyo qabilalari o‘z ijtimoiy taraqqiyot yo‘lida, shuningdek, Qadimgi Sharq xalqlarining avlodlari chifdom – protodavlat bosqichini boshidan o‘taganlar<sup>42</sup>. Sotsiolog L. S. Vasilevning xulosasiga qaraganda, jahornning barcha xalqlari “chifdom” bosqichini o‘tagan.<sup>43</sup> Xullas, “chifdom” amalda sinfiy jamiyat va ilk davlatchilik munosabatlarining yuzaga kelishini anglatib, ammo chifdom bilan ilk davlatchilikning muayyan farqi oralig‘ini belgilash qiyin<sup>44</sup>. Yuqorida qayd etilgandek, O‘rta Osiyoda “chifdom” tipidagi ilk davlatchilikning vujudga kelishi o‘tmish tarixining uzoq jarayonini o‘z ichiga oladi. Olimlar moddiy madaniyat manbalari taraqqiyot darajasiga qarab, bu davrni mil. avv. II ming yillik ikkinchi yarmi – I minginchi yillikning birinchi yarmi bilan belgilashmoqda. Bu davring moddiy madaniyat manbalari tarixan ikki taraqqiyot bosqichidan, ya’ni mil. avv. II ming yillik ikkinchi yarmi (so‘nggi bronza davri Namozgoh VI) mil. avv. X–IX asrlar va ilk temir davri – Yaz I va Yaz II bosqichidan iborat bo‘lib, u mil. avv. X–IX asrdan I minginchi yillik o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixiy jarayonni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi bronza va ilk temir davri O‘rta Osiyo jamiyatida kechgan muhim burilish payti bo‘lib, ibridoiy jamiyat tizimining jadal inqirozi, sinfiy munosabatlar va davlatchilikning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Moddiy madaniyatda keskin o‘zgarishlar yuzaga kelib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi ham

<sup>41</sup> Васильев Л. С. Становление политической администрации // Народы Азии Африки. – 1980. – №1; Васильев Л. С. Протогосударство-Чифдом как политическая структура // НАА – 1981. – №6.

<sup>42</sup> Аскаров А. А., Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура... – С. 136.

<sup>43</sup> Васильев Л. С. Становление политической администрации... – С. 175.

<sup>44</sup> Васильев Л. С. Становление политической администрации... – С. 174-6; Гуляев В. И. Структура власти в древнейших государствах Мезоамерики. Генезис и характерные особенности. От доклассового общества к раннеклассовому. – М., 1987. – С. 103–119.

o‘zgaradi. Aynan shu davrda ilk shaharlar paydo bo‘lib, bu hodisa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan bog‘liq edi. Shahar madaniyatiningvujudga kelishi sinfiy jamiyat va davlatchilikning tashkil topishi bilan chambarchas bog‘liq<sup>45</sup>.

So‘nggi bronza davriga kelib, jamiyat iqtisodiy xo‘jalik sohalari agrar-hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonni boshqarish institatlari tashkil topib, ular shahar markazlaridan boshqarilar va aholi yirik monumental inshootlar, irrigatsiya sug‘orish kanallar qurishga jalg qilinari edi. bu kabi iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishiga, xullas, sinfiy jamiyatning tezlashuviga olib keldi. Shunday qilib, ilk shaharlashish madaniyati, sinfiy jamiyat va davlatchilikning tashkil topishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Sotsiolog Yu. V. Pavlenkoning tadqiqotlariga qaraganda O‘rta Osiyo, Eron va Afg‘onistonda yuzaga kelgan sinfiy jamiyat mahalliy asosda tashkil topgan bo‘lib, bu jarayonni Oltintepa, Namozgohtepa, Mundigak va boshqalarda kuzatish mumkin. Ular dastlabki nom tipidagi mustaqil shahar-davlatlar edi.<sup>46</sup>

Qadimgi Sharqda mil. avv. II ming yillikda asosan uchta tipdan iborat davlatlar mavjud bo‘lgan. Bularning biri kichik nom yoki shahar-davlatlar edi. jumaladan, Shumerda, Mesopotomianing yuqori qismida, Suriya va Finikiyada shunday nom shahar-davlatlar mavjud bo‘lgan. Xett, Mitani va O‘rta Ossuriya hududlaridagi davlatlar barqaror bo‘lmasan, konglemerat tipidagi davlatlar bo‘lib, kuchsizlari kuchlilariga soliq to‘lab turardilar. Bundan tashqari, Misrda, keyinchalik Quyi Mesopotomiya va Elamda, asosan yirik daryolar vohalarida katta hududlarni o‘z tarkibiga olgan yirik davlatlar ham tashkil topgan. Aynan shunday davlatlar mil. avv. I minginchi yillikda O‘rta Osiyoga tutash joylarda ham tashkil topgan bo‘lib, O‘rta Osiyoni ham shunday jarayonlar jumlasiga kiritish mumkin<sup>47</sup>.

Qadimgi Mesopotomianing shahar-davlatlari o‘z hududi bilan chegaralanib qolmagan holda yirik dehqonchilik vohalarini o‘z tarkibiga birlashtirgan. Masalan,

<sup>45</sup> Павленко Ю. В. Раннеклассовые общества. Генезис и пути развития. – Киев. Наукова думка, 1989. – С. 52–74; Гуляев В. И. Города-государства Мая (структура и функции города в раннеклассовом обществе). – М.: Наука, 1979. – С. 282; Массон В. М. Алтын-депе.. – С. 122–123.

<sup>46</sup> Павленко Ю. В. Раннеклассовые общества. Генезис и пути развития... – С. 109.

<sup>47</sup> История древнего мира. Расцвет древних обществ. Издание 3-ое. – М., 1989. – С. 10.

Ur “nomi” 90 kv km hududdan iborat bo‘lib, uning tarkibiga Muru, Ubayd shaharlari hamda bir necha qishloqlar ham kirgan edi<sup>48</sup>.

Keng miqyosda qaralganda bronza davrining so‘nggi va ilk temir davrlarida O‘rta Osiyoda tashkil topgan ilk shaharlar topografik jihatdan ham Mesopotamiyaning shahar-davlatlarga yaqin o‘xshashlik xususiyatlariga ega edi<sup>49</sup>. O‘rganilayotgan davrda Baqtriyada 11 ta yirik dehqonchilik vohalari bo‘lib, ular hududlari 100 dan ortiq yodgorliklar qalamga olingan va o‘rganilgan. Biroq ularning barchasida ham shaharlar tashkil topgan emas, balki bu hodisa irrigatsiya vohalarida tashkil topdi. Bular jumlasiga Shimoliy Baqtriyadagi Jarqo‘ton, balki Mo‘loli, Janubiy Baqtriyadagi Dashli-3 yodgorliklarini kiritish mumkin. A. Asqarov va T. Shirinovlarning ma'lumotlariga qaraganda, Jarqo‘ton “chifdom” tipidagi maydarоq davlat ma'muriy markazi bo‘lib, Mesopotomiyadagi “nom”larga qaraganda barqaror bo‘lmасдан, amorf shaklidagi siyosiy birlashma bo‘lgan bo‘lishi mumkin<sup>50</sup>.

Jarqo‘ton siyosiy birlashmasi o‘z atrofidagi 25-30 km radiusdagi 4 ta, ya’ni Ulanbuloq, Bo‘stonsoy, Bandixonsoy, Xalkadjarsoy singari vohalarga o‘z ta’sirini o’tказган bo‘lishi mumkin. Uning janubiy sarhadida joylashgan Sopollitepa, Dashli-1 qal’alari bu davlatning Janubiy Baqtriyadagi tayanch qal’alaridan iborat bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Baqtriya hududlarida keng ko‘lamda arxeologik tadqiqotlar olib borgan arxeolog olimlar A. Asqarov va T. Shirinovlarning xulosasiga ko‘ra mil. avv. II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida O‘rta Osiyoning janubiy sarhadlarida shunday bir necha mayda, oddiy davlatchalar tashkil topgan bo‘lib, Jarqo‘ton, Dashli-3, Gonur-1, To‘g‘aloq-1, Ulug‘tepa, Namozgohtepa va Oltintepalar ularning markazlari bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Aynan shunday jarayon qo‘shti Eron Xorosoni va Seistonida ham kechgan. Xususan, Shumer hududida bu davrda

<sup>48</sup> История древнего мира... – С. 167.

<sup>49</sup> Аскаров А. А., Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура... – С. 137.

<sup>50</sup> Аскаров А. А., Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура... – С. 137.

13 ta kichik mustaqil davlatchalar mavjud bo‘lgan<sup>51</sup>. Mil. avv. I ming yillikda aynan shunday jarayon dunyoning boshqa mintaqalarida ham kechgan<sup>52</sup>.

## **2.2. Oltintepa qadimiy shahar yodgorligining moddiy manbalari**

Keyingi yillardagi tadqiqotlar tufayli O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlari, xususan, Marg‘iyona va Baqtriya hududlari paleolit davridan boshlab odamzotning makoni bo‘lib kelganligi, mezolit davrining oxirlari va neolit davrida ularning merosxo‘rlari oddiy dehqonchilik va xonaki chorvachilik asosida mahsulot ishlab chiqarishganlar. Bu jamoalar avlodlarining davomchilari esa bronza davrida, ayniqsa, uning so‘nggi bosqichlarida yirik aholi markazlarining, ya’ni ilk shaharsozlikning paydo bo‘lishida uning haqiqiy ijodkorlari bo‘ldilar. Bu jarayonning mahalliy asosda paydo bo‘lganligi va Sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini olimlarimizning qator izlanishlarida o‘z yechimini topdi.

O‘rta Osiyoda va xususan, O‘zbekistonda shaharlashish yoki urbanizatsiya masalalarini o‘ragnishda V. M. Masson, A. Asqarov, Yu. F. Buryakov, V. I. Gulyayev, A. S. Sagdullayev, P. Adams, V. I. Sarianidi, E. V. Rtveladze, Yu. V. Andreyev, E. V. Sayko, T. Sh. Shirinov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga egadir. Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi bronza davri va ilk temir asrida O‘rta Osiyo janubiy mintaqalarida yashagan xalqlar tarixida muhim burilish davri bo‘lgan. Zero, bu davr ibtidioy jamiyat tuzumining jadal tarzda inqirozi, sinfiy munosabatlар va davlatchilikning vujudga kelishi bilan xarakterlanib, aynan shu davrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda dastlabki shaharlar paydo bo‘ladi.

O‘rta Osiyo ilk shaharlar tarixini qiyosiy o‘rganishda sivilizatsiyaning bir-lamchi o‘choqlari hisoblangan Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Mezo-amerika va boshqalar ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, qadimgi sivilizatsiyaning dastlabki o‘choqlari jahonning turli mintaqalarida va sharoit, xususiyatlari bilan bog‘liq holatda vujudga kelgan bo‘lsa-da, ular sinfiy jamiyatga,

---

<sup>51</sup> Гуляев В. И. Города Мая...— С. 76–77.

<sup>52</sup> Павленко Ю. В. Раннеклассовые общества....— С. 138; Дандамаев М. А., Луконин В. Г. Культура и экономика Древнего Ирана. – М.: Наука, 1980. – С. 41–71.

davlatchilik va shahar madaniyatiga o‘tish jarayonlarini yagona dialektik xususiyat birlashtirib turadi. Masalan, birinchi sivilizatsiyalar jamiyati sotsial strukturasini qaraydigan bo‘lsak, bu jarayon eski va yangi dunyoning qaysi mintaqasida sodir bo‘lishidan qat’iy nazar, u tarixiy taraqqiyotning umumiy qonuniyati asosida namoyon bo‘ladi.<sup>53</sup> Arxeolog, urbanolog V. I. Gulyayev yangi dunyodagi qadimgi Mayya jamiyatining sotsial strukturasini ochib berishda Mesopotamiya va Misr manbalaridan unumli foydalangan. Taniqli olim V. M. Masson ham turli qit’alarda tashkil topgan birinchi sivilizasiyalarni boshqalari bilan taqqoslab o‘rganishni ma’qullaydi. Ammo V. M. Masson va ayrim tadqiqotchilar, jumladan, K. K. Lamberg – Karlovskilar O‘rta Osiyoda bronza davrida vujudga kelgan oazis (voha) sivilizatsiyasi birlamchi o‘chog‘ bo‘lmasdan, balki u qo‘shti mamlakatlar hududidagi sivilizatsiya, xususan, Mesopotamiya, Eron, Hindiston ta’sirida tashkil topgan bo‘lishi mumkin, degan mulohazalarni olg‘a suradilar<sup>54</sup>. Ammo, taniqli arxeolog olimlardan A. Asqarov va T. Shirinov bunday tezislardan jamiyat tarixiy taraqqiyoti umumiy qoidalariga to‘g‘ri kelmasligini ta’kid etadilar, ya’ni bu mualliflar O‘rta Osiyo janubida tashkil topgan shahar madaniyati va sinfiy jamiyat mutlaqo mustaqil ravishda vujudga kelganligi va birinchi sivilizatsiya tashkil topgan mintaqalar singari u ham o‘sha qonuniyatlarini o‘zida to‘la aks ettirgan, degan yangi xulosalarni bildiradi.<sup>55</sup>

Urbanizatsiya jarayonini o‘rganish qaysi bir mintaqada sodir bo‘lmasin, u xalqlar tarixini o‘rganish bilan bog‘liqdir. Xususan, V. I. Gulyayev shaharlashish madaniyati haqida fikr bildirib, shahar jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy strukturani to‘g‘ri oydinlashtirib boradigan manba bo‘lib, bu hodisaning kelib chiqishi, uning ichki tizimini va o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalab beruvchi alomatlarni namoyon qiladi, deydi<sup>56</sup>.

Ko‘p yillar davomida tadqiqotchilar orasida O‘rta Osiyo jamiyatida urbanizatsiya jarayoni antik davrda boshlangan degan fikr humkron bo‘lib kelayotgan

<sup>53</sup> Аскаров А., Ширинов Т. Эпоха бронзы Юга Средней Азии. – Самарканд, 1993. – С. 10.

<sup>54</sup> Массон В. М. Первые цивилизации. – Л., 1989. – С. 193 Ламберг-Корловски К. К. Модели взаимодействия в III тысячелетий до н.э: от Месопотамии до долины Инда // ВДИ. – 1990. – №1. – С. 3–21.

<sup>55</sup> Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура... – С. 11–12.

<sup>56</sup> Гуляев В. И. Города-государства Мая (структура и функции города в раннеклассовом обществе) – М.: Наука, 1979. – С. 92.

edi. Ammo urbanizatsiya xususiyatlariga ega bo‘lgan Marg‘iyonadagi Yoztepa, Shimoliy Baqtriyadagi Qiziltepa, shuningdek, Shimoliy Parfiyadagi Yelkantepa II, Dog‘istondagi Madau, Izzatko‘li, So’g‘ddagi Yerqo‘rg‘on, Farg‘onadagi Dalvarzin singari aniq shahar madaniyatiga ega bo‘lgan ilk temir davri arxeologik yodgorliklari inobatga olinmasdan kelindi. Bu yodgorliklar barcha xususiyatlari bilan aslda O‘rta Osiyoning haqiqiy shaharlari edi, degan aniq xulosani Yu. A. Zadneprovskiy bildiradi<sup>57</sup>.

A. Asqarov, T. Shirinovlarning so‘nggi yillarda olib borgan tadqiqotlari bu jarayonga yangi ilmiy oydinliklar kiritdi. O‘rta Osiyo ilk temir asri shahar madaniyati qisqa tarixiy hodisa bo‘lsa-da, u tashqaridan, ya’ni o‘zga yurtlardan kirib kelingan emas, balki urbonik ob’ektlarning uzoq davrlar taraqqiyoti mahsuli sifatida namoyon bo‘lgan, uning kelib chiqishi bronza davri madaniyati bilan bog‘liq, degan yangi xulosalar bildirildi<sup>58</sup>. Binobarin, O‘rta Osiyoning janubiy sarhadlarida, jumladan, Baqtriya va Marg‘iyona hududlarida bronza davri madaniyati (miloddan avvalgi III-II minginchi yillikning oxirlari)dayoq o‘troq dehqonchilik bilan bog‘liq hududlarda, mahalliy, tub negizga asoslangan irrigatsiya asosidagi an'anaviy sug‘orma dehqonchilik vohalari tashkil topgan edi. Ana shunday tarixiy vohalarda dehqonchilik iqtisodi bilan bog‘liq ilk shahar markazlari vujudga keldi. Bu davr shahar markazlariga Turkmanistondagi Oltintepa, Namozgohtepa, Ulug‘tepa, Gonur I, Janubiy O‘zbekistondagi Sopollitepa, Jarqo‘ton, Shimoliy Afg‘onistondagi Mundigak, Sharqiy Erondagi Shahri-So‘xta, Shimoliy Erondagi Gissar kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bulardagi shahar madaniyat o‘choqlari Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari oralig‘ida – bir tomonidan Shumer va Elam, ikkinchi tomonidan Xarappa sivilizasiyasi oralig‘ida joylashgan bo‘lib, ularning barchasi yaqin aloqadorlikda rivojlanishda bo‘lganligi e’tirof qilinadi<sup>59</sup>/ To‘g‘ri, yuqorida nomlari zikr etilgan bronza va ilk temir davriga doir yodgorliklar ilk urbonik jarayoni nuqtai nazardan hozircha to‘laligicha o‘rganilmaganligi adabiyotlarda qayd etilgan. Ko‘pgina olimlar eng qadimgi

<sup>57</sup> Заднепровский Ю. А. Древние города и этапы урбанизации Средней Азии. Зоны и этапы урбанизации. – Т.: Фан, 1989. – С. 51.

<sup>58</sup> Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура... – С. 11–12.

<sup>59</sup> Аскаров А. К вопросу во выделении культуры Сапалли // Древняя Бактрия. – Л., 1974 – С. 154.

vaqtidan o‘rta asrlar davrigacha vujudga kelgan urbonik jarayon taraqqiyoti haqidagi modellarini ham taklif qilishmoqda. Masalan, Yu. A. Zadneprovskiy O‘rta Osiyoning dastlabki shahar bosqichini ilk temir asri bilan bog‘lagan holda Oltintepa, Namozgohtepa bronza davri yodgorliklarini “Qadimgi Sharq tipidagi shaharlar” deb atab, noaniqliklarga yo‘l qo‘ygan. Zero, bu yodgorliklar ilk temir asridan xronologik jihatdan ancha uzoq<sup>60</sup>. Yuqorida zikr etilgan tadqiqotchilar orasida B. A. Litvinskiy dastlab protogorod va miloddan avvalgi II ming yillik – I ming yillikning birinchi yarmiga doir eng qadimgi shahar-qishloqlarni e’tirof qilib, antik davr shaharlarini miloddan avvalgi VI–IV asrlar bilan belgilab, urbonik evolyusion jarayonni bir mucha oydinlashtirib bergan<sup>61</sup>. Ammo, A. Asqarovning firkicha, bu davrlashtirishda ham ayrim noaniqliklar mavjud. Jumladan, bu olim “protogorod” va “shahar” atamalariga muayyan aniqliklar kiritmaganligini ta’kidlaydi. Bu masalaga doir V. M. Massonning tadqiqotlari e’tiborga molikdir. Masalan, u urbanizatsiyani ikki asosiy bosqichga, ya’ni Qadimgi Sharq (mil. avv. II ming yillik – I ming yillik o‘rtalari) va antik davr (mil. avv. III, IV–V asrlar)ga bo‘lib, ilk shaharlarning vujudga kelishida ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotga asoslangan qator shahar tipidagi qishloqlarning vujudga kelishini konkret tarixiy jarayon bilan bog‘lagan holda to‘g‘ri tushuntirib bergan bo‘lsa-da, biroq miloddan avvalgi III ming yillikka doir Oltintepani shahar sifatida xarakterlamaydi, ya’ni Oltintepa shaharmi yoki protogorodmi, bu haqda aniq fikr bermaydi.<sup>62</sup> Bu borada A. Asqarov bir mucha aniqliklar kiritib, Oltintepani “ibodatxona shahar” degan fikrni bildiradi. Shaharlar tarixi ustida tadqiqot olib borgan olimlardan biri V. I. Sarianidi shahar tipidagi yodgorliklar miloddan avvalgi III ming yillikda, bronza davrida tashkil topganligi haqida fikr bildirib, unga Janubiy Baqtriyadagi Dashli-1 yodgorligini misol tarzida ko‘rsatadi<sup>63</sup>.

<sup>60</sup> Заднепровский Ю. А. Древние города и этапы урбанизации Средней Азии. Зоны и этапы урбанизации. – Т.: Фан, 1989. – С. 51; Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура... – С. 12.

<sup>61</sup> Литвинский Б. А. Древний среднеазиатский город (Местные традиции и иноземные модели) // Древний Восток. – Города торговля (III-I тыс. до н.э.), – Ереван, 1973. – С. 102–105.

<sup>62</sup> Массон В. М. Процесс урбанизации в древней Средней Азии // Тезисы докладов сессии, посвященной итогам археологических исследований в 1972 году в СССР. – Т., 1973. – С. 36; Массон В. М. Типология древних городов и исторический процесс // Древние города. Материалы к Всесоюзной конференции «Культура Средней Азии и Казахстана в эпоху раннего средневековья». – М.: Наука, 1977. – С. 5–7.

<sup>63</sup> Сарианиди В. И. Древние земледельцы Афганистана. – М.: Наука, 1977. – С. 19–21.

A. Asqarov o‘z shogirdlari bilan Janubiy O‘zbekistonda ko‘p yillar uzlusiz tadqiqot ishlari olib borib, urbonik jarayonlarni o‘rganishda muhim natijalarga erishdi. Jumladan, u Sopollitepa va Jarqo‘tonda ko‘p yillar qazishma tekshiruv ishlarini bajargan holda bu yodgorliklarni ilk shahar yoki protogorod toifasiga kiritdi.<sup>64</sup> Yana bir ushbu soha bilimdoni N. Negmatov esa urbonik jarayonning boshlanishini eneolit va ilk bronza davri ekanligi haqida xulosalar beradi.<sup>65</sup>

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan urbonik jarayonning boshlanishini bronza davri, ya’ni miloddan avvalgi III–II minginchi yillikning eng so‘nggi bosqichlariga mansub va O‘rta Osiyodagi bu davr yodgorliklari ilk shaharlardir deb tan olingan. Ammo shaharsozlik madaniyatining ayrim tomonlari hozircha to‘liq ochib berilgan emas. Bunga O‘rta Osiyo urbanizatsiya jarayoni Qadimgi Sharqdan farqli o‘laroq, bu yerda o‘rganilayotgan davrdagi yodgorliklarda yozuv bilan bog‘liq manbalarning hozircha qo‘lga kiritilmaganligidir va ilk shaharlarini o‘rganishdagi yagona manba arxeologiya materiallari bo‘lib qolayotganidir. Bundan tashqari, sobiq ittifoq tarixchilari orasida uzoq vaqt bronza davri ibridoiy jamiyat tuzumi degan xulosa bilan ilk shaharlar muammosini tadqiq qilishda ilmiy manba bo‘lmay keldi.

Shuni aytish lozimki, ibridoiy institutlarning inqirozi va sinflashish jarayoni bir vaqtning o‘zida muayyan jamiyat negizida sodir bo‘ladi. Insoniyat jamiyatini tarixiy taraqqiyoti jarayoni uzlusiz sakrashlar va evolyusion taraqqiyot mahsuli sifatida alohida mintaqa, vaqt va zamonda sodir bo‘lib, o‘z davri uchun progressiv hodisa edi. Ilk shaharlar jahoning qaysi mintaqasida tashkil topgan bo‘lmashin, bu hodisa uzoq davrlarni o‘z ichiga olgan tarixiy yuksalish va inqiroz jarayonlarini boshdan kechirgan. Oddiy tarzda vujudga kelgan “Chifdom” tipidagi dastlabki davlatchilik nihoyatda sodda, uyushmagan holda, beqaror bo‘lgan. Lekin davlatchilikning ilk bosqichiga xos inqirozlarni o‘z boshidan kechirgan. Bir necha yuz yillar o‘tishi davomida kuchli, barqaror davlatlar tashkil topib, bunday tarixiy jarayonni O‘rta Osiyo ilk temir davrida aniq kuzatish mumkin.

<sup>64</sup> Аскаров А. А., Жўракулов М. Ж. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё. – Самарқанд, 1984. – Б. 87–97.

<sup>65</sup> Негматов Н. Н. К концепции урбанизации Азии: модель и ступенчатость. // Зоны и этапы урбанизации. Тезисы докладов региональной конференции. – Т.: Фан, 1989. – Б. 28.

Yuqorida zikr qilingan masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tahlil etishda A. Asqarov va T. Shirinovlar ilk shahar masalasining nazariy jihatlarini e’tiborga oldilar. “Shahar” va “sivilizatsiya” tushunchalarini o‘zaro dialektik aloqadorlikda qarab, bir qator ilmiy xulosalarni ishlab chiqdilar<sup>66</sup>. Ularning fikricha, shahar tushunchasining shakllanishi bir qadar murakkab hisoblanadi va bu haqda turli nuqtai nazarlar mavjud. “Shahar” tushunchasi, uning son jihatidan tahlili, struktural-morfologik xususiyatlari asosida sharhlab borildi.<sup>67</sup>

Ko‘p yillik tadqiqotlar va manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, bronza davridagi Janubiy O‘rta Osiyo ilk shaharlari qishloq xo‘jalik okruglarining markazi, shuningdek, muayyan vohaning ma’muriy va diniy markazlari hisoblangan. Yuqorida bayon etilganidek, ilk shaharlarning struktural – morfologik va funksional tahlillari haqidagi masala yuzasidan olimlar orasida turlicha qarashlar mavjud. Ilk shaharlarni xarakterlashda, ayniqsa, struktural tahlili muhim bo‘lib, shundan kelib chiqqan holda shahar funksiyasini aniqlash mumkin. Shuningdek, ilk shaharlarning strukturasini belgilashda avvalo arxeologik alomatlarni aniqlash muhimdir.

O‘rta Osiyo bronza davridagi ilk shaharlarning xususiyatlarini belgilashda A. Asqarov va T. Shirinovlar ishlab chiqqan metodologik belgilar bir muncha xarakterlidir. Xususan, ular ilk shaharlarga xos bo‘lgan ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ma’qullangan 9 ta asosiy belgilarni keltiradilar<sup>68</sup>. Jumladan: 1) jamiyat yuqori tabaqalari turadigan monumental saroyning mavjudligi; 2) monumental saroy va ibodatxonasi bo‘lib, u oazisning sig‘inish markazi sifatida mavjudligi; 3) atrofi devorlar bilan o‘rab olingan ark, ya’ni e’tiborga molik joy va jamiyatning nufuzli kishilari yashaydigan saroy komplekslarining mavjudligi; 4) maydoni 3-6 ga dan kam bo‘lmagan joyga ega kompleks qurilishlari bilan band bo‘lgan va boshqa jamoa xo‘jaliklari joylashgan muayyan joyning markazlashuvi holati va irrigatsiya – dehqonchilik bilan bog‘liq oazisi; 5) hunarmandchilik kvartalining mavjudligi. Yuksak rivojlangan hunarmandchilik – sopolchilik, zargarlik,

<sup>66</sup> Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура... – С. 13–15.

<sup>67</sup> O’sha joyda... – С. 10–17.

<sup>68</sup> Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура... – С. 20.

metallurgiya, to‘qimachilik, qurilish, teri, toshni hamda boshqa narsalarni qayta ishslash bilan bog‘liq alomatlarning mavjudligi; 6) “dohiylar” qabri va aso, zargarlik buyumlari, boylikni bildiruvchi muhr ramzları; 7) oddiy aholi kvartallaridan farq qiladigan monumental qurilishlar (saroy, butxona, ibodatxona)ning mavjudligi, shuningdek, ularning tashqi ko‘rinishi, rejalashtirilishi, boshqalardan ajralib turishi, uylarning sarajomligi (sufa, devorlarning ohak aralashmasi bilan suvalganligi), xona polarining suvalganligi, ular bilan bog‘liq topilmalarining mavjudligi; 8) ushbu madaniyat hududiga xos bo‘lmagan topilmalar: sopol, suyak, tosh, metall buyumlar, qaysiki, savdo munosabatlarini bildiruvchi alomatlarning mavjudligi; 9) primitiv yozuv, gliptika, epigrafika topilmalarining mavjudligi. To‘g‘ri, A. Asqarov bu model O‘rta Osiyo ilk shaharlari uchun universal bo‘lmasdan, balki u o‘rganilayotgan mintaqa va shahar xususiyatiga bog‘liq ekanligini ham unutmaslik lozimligini qayd qiladi.

O‘rta Osiyo ilk shaharlarini xarakterlovchi bu alomatlarning 1, 2, 3, 4, 7 lari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qolganlari ikkinchi darajali hisoblansa-da, vaqt va zamonda shahar rivoji jarayonida bu alomatlar doim o‘zgarib borganligini ko‘rsatadi. Masalan, ilk shaharlarning tashkil topishda savdo munosabatlari hyech qanday rol o‘ynamagan, shaharning geografik joylanishiga qarab, savdo ishlari muhim omilga aylanishi mumkin. Shuningdek, ilk shaharlar uchun yozuvning bo‘lishi, albatta, shart bo‘lmasligi, og‘zaki mifologik an'analar rivojlangan bo‘lishi mumkin. Lekin bu vaqtarda davlat apparati ancha sust taraqqiy qilgan.

Shunday qilib, O‘rta Osiyo bronza davri ilk shaharlari morfologik jihatdan kompleks qurilishga, maydoni 3-6 ga dan kam bo‘lmagan hududni o‘z ichiga olgan, arxitektura binolarining bir muayyan joyda to‘planganligi, monumental binolar bilan bog‘liq dunyoviy va diniy inshootlarining, shuningdek, hunarmandchilik kvartali, qalin devorlar bilan o‘rab olingan qal'a, muhrlar va boshqa topilmalar bilan bog‘liq xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy jihatdan qaralganda ilk shahar ishlab chiqarish kuchlarining markazlashgani, avvalo, dehqonlar jamoasining kuchli differensiatsiyalashganligi va shu kabi omillar “chifdom” tipidagi sodda davlatchilikning vujudga kelishidan

dololat beradi. Xullas, ilk shaharlar voha dehqonlarining xo‘jalik, ma’muriy va sig‘inish markazi hisoblangan. Ilk shaharning tashkil topishi tarixiy hodisa sifatida qadimgi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy sohalarda yuzaga kelgan murakkab jarayonning mahsuli bo‘lib, bu manzara, ayniqsa, arxeologik manbalarda o‘z aksini topgan. Fandagi muammoviy masalalardan biri – bu shaharlashish, ya’ni shaharning vujudga kelish masalasidir.

Shaharlashish omillari aniq tarixiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya va jo‘g‘rofiy holatdan kelib chiqib, uning ichki qurilishi ham doimo o‘zgarib boradi. Shaharning tug‘ilishi to‘g‘risida ikki nuqtai nazar mavjud. Shulardan biri ommaviy ta’limot bo‘lib, fanda «shahar revolyusiyasi» nomi bilan ataladi. Bu atama dastlab o‘tgan asrning 50-yillaridayoq G. Chayld tomonidan qo‘llanilgan edi. Ikkinchisi, “evolyusiya” nomi bilan atalib, bu ta’limot birinchisini inkor qilgan holda shaharning bosqichma-bosqich taraqqiyoti tufayli vujudga kelishini nazarda tutadi. Bu ta’limot G. Adams, V. M. Masson, Yu. V. Andreev, A. A. Asqarov, T. Sh. Shirinovlar tomonidan ilgari surilmoqda. Bizningcha, shaharning vujudga kelishi evolyusion taraqqiyot asosida bo‘lishi haqidagi ta’limot bir muncha to‘g‘ridir. Chunki shahar tarixiy tushuncha bo‘lib, u murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va texnikaviy taraqqiyot mahsulidir.

## XULOSA

Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyonada ilk shaharlarning vujudga kelishida avvalo, tabiiy muhitning barqarorligi, yer, suv, iqlim va boshqa jo‘g‘rofiy omillarning mavjudligi, eng muhim, irrigatsiyaga asoslangan sug‘orma dehqonchilikning samaradorligi, shuningdek, texnologik taraqqiyot singari omillarning mavjudligi natijasida dehqon va dehqon bo‘lmagan jamoalarmi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanishga sharoit yaratildi. Bu iqtisodiy omillar aholining barqaror, qo‘nim yashashiga qaratilgan edi.

O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida rivojlangan bronza davriga kelib, g‘ildirakli aravalar kashf qilindi, sopol idishlarni pishirish, metallni eritish va qoliplarga quyish texnologiyalari kashf qilinib, mehnat qurollarining takomillashuviga, ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishiga va oqibatda mehnat unum-dorligining oshishiga olib keldi. Endilikda yerga ishlov berish, xususan, haydash yo‘li bilan yumshatish uchun omoch va aravalarga qo‘shiladigan hayvon kuchidan foydalanish singari xo‘jalik yangiliklari vujudga keldi. Uy-joylarni dahalarga bo‘lish, me’moriy komplekslarni reja asosida qurish kabi texnologik yangiliklar joriy qilindi. Shaharlashishning vujudga kelishida ijtimoiy omillar, ya’ni jamiyatning tabaqalanishi, shu asosda ma’muriy boshqaruvning shakllana borishi, diniy yetakchilikning tashkil topishi singari omillar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu omillarning yagona dialektik aloqasi tufayli shaharlashish jarayoni sodir bo‘ldi.

Sug‘orma dehqonchilikning tashkil topishi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda muhim omil bo‘ldi. Bu hodisa keyinchalik kishilarning muayyan muzofotda muqim yashashga olib keldi. V. M. Massonning xulosasiga qaraganda, O‘rta Osiyoda tashkil topgan qishloqlarning ayrimlari kishilarning bir necha ming yilliklar davomida qo‘nim yashaganligidan guvohlik beradi<sup>69</sup>. Masalan, eneolit davriga kelib, ya’ni miloddan avvalgi IV–III ming yillikda uylarning hajmi kengayib, soni ham ko‘payadi, shu asosda yashash massivlari kvartallar, ularni gir aylantirib olgan devorlar va ko‘chalar tashkil topib, bu manzarani olimlar shaharning embrion belgilari edi, deb talqin qiladilar.

---

<sup>69</sup> Массон В. М. Средняя Азия и Древний Восток – М–Л, 1964. – С. 26.

Bronza davriga kelib, ya'niqishloqlar son jihatidan ko'payadi, ularning sifati ham o'sib boradi. Endilikda yangi vohalar o'zlashtirila boriladi, irrigatsion kanallar quriladi, sug'orma maydonlar kengayadi va hokazo. Xullas, bu taraqqiyot oqibatda sifat o'zgarishlariga olib keldi.

Ayrim yirik qishloq-qo'rg'onlarning, jumladan, Oltintepa, Gonur-1, Jarqo'-ton, Dashli-3 singarilarning ichki qurilishi boshqalardan jiddiy farq qilib, endi ularda hovli, ibodatxona, hunarmandchilik kvartallari, mudofaa devorlari bilan o'rab olingan qal'a kabi monumental binolar paydo bo'ldi. Bu davr ijtimoiy hayotidagi muhim o'zgarishlardan biri mulkchilikning paydo bo'lishini ifodalaydigan muhrning paydo bo'lishi edi. Bu hodisa dehqonchilikda ishlab chiqarishning rivojlanishini, shu asosda boshqaruv apparatining tashkil topishi, ayrim kishilarning ixtiyorida ziyod mahsulotning vujudga kelganligidan guvohlik beradi.

Demak, ilk shaharlar, avvalo, irrigatsiya dehqonchiligi mukammal rivojlangan hududlarda tashkil topib, O'rta Osiyo janubida ilk shaharlarining vujudga kelishida agrar xo'jalik faktori muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday qilib, A. Asqarov, T. Shirinovlarning tahlillariga ko'ra, O'rta Osiyo sharoitida miloddan avvalgi VI–I ming yilliklarda tashkil topgan qishloqlardan ilk shaharlarning yuzaga kelish dinamikasi uch bosqichdan, ya'ni birinchi bosqich – kichik jamoalardan tashkil topgan yashash makonlari, ikkinchi bosqich – protogorod-shaharmonand makonlar (mil. avv. III–I ming yilliklar), uchinchi bosqich III–I ming yilliklarda rivojlangan bronza va ilk temir asrlarida vujudga kelgan ilk shaharlardan iborat.

O'rta Osiyo ilk shaharlar madaniyati bevosa ilk dehqonchilik qishloqlari negizida uzoq evolyusion yo'lni bosib o'tish tufayli tashkil topgan. Agrar dehqonchilik xo'jaligidan tashqari shaharlashish omillaridan yana biri – bu tabaqalashgan jamiyatning ijtimoiy muhitidan dalolat beruvchi ma'muriy, xususan, saroy kompleksi va sig'inish (ibodatxona) markazlaridir. Bular ilk shaharlarning birlashuvi uchun xizmat qilgan. Demak, ilk shaharlar siyosiy va sig'inish markazlari vujudga kelgan joylarda vujudga kelgan bo'lishi ham mumkin.

V. M. Massonning fikricha, birinchi sivilizatsiya moddiy madaniyati qanchalik aniq bo‘lmasin, ilk shaharlarning tashkil topishida, shuningdek, sinfiy jamiyatning tashkil topishida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosiy harakatga keltiruvchi kuch ekanligini unutmaslik kerak<sup>70</sup>.

Ilk shaharlar aholisining muayyan qismini hunarmandlar, boshqaruva apparati, kohinlar, ibodatxona xizmatkorlari va boshqalar tashkil qilgan. Son jihatidan qaralganda, bu aholi ilk shahar aholisining kichik bir qismi bo‘lgan. Aynan shunday tabiiy yo‘l, ya’ni ilk shaharlarning tashkil topishi, qurilishi va vazifasi Mesopotamiya, Mezoamerika va Hindistonda vujudga kelgan birinchi sivilizatsiya o‘choqlariga ham tegishlidir. O‘rta Osiyo sivilizasiyasini balki birinchi bo‘lmasa-da, ammo u mustaqil sivilizatsiya o‘chog‘i hisoblanadi. Shunday ekan, O‘rta Osiyo ilk shaharlari madaniyati Qadimgi Sharqning umumiy urbonik qonuniyati jarayonidan uzilib qolgan hodisa emas.

Ishimizning muxtasar qismida Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona muzofotlarida shaharlarning vujudga kelishi haqidagi mulohazalarga doir yana bir fikrni alohida eslatish lozim, ya’ni A. Asqarov rahbarligida 1969 yildan e’tiboran olib borilayotgan dala tekshiruv ishlari boy arxeologik manbalar asosida fanga yangi xulosalarni kiritdi. Jumladan, Janubiy O‘zbekiston – Qadimgi Baqtriya hududlaridagi bronza davri yodgorliklarining o‘rganilishi, ularning Qadimgi Sharq sivilizatsiyasida tutgan o‘rni va ahamiyati ochib berildi. Xususan, Sopollitepa, Pshaktepa, Kuchuktepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston kabi ilk va proto shaharlar va qishloq qoldiqlari, ular bilan bog‘liq dafinalar qunt bilan o‘rganilib, Shimoliy Baqtriyada Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi markazi – o‘troq dehqonchilik va uning negizida ilk shahar madaniyatining yangi o‘chog‘i Sopolli madaniyatining fanga kiritilishi bo‘ldi.

Xullas, Sopolli yodgorliklarini o‘rganish davomida qo‘lga kiritilgan boy arxeologik manbalar O‘zbekiston xalqlari tarixida yangidan-yangi sahifalarni ochdi. Jumladan, avvalgi tasavvurlarga zid o‘laroq, qadimgi dehqonchilik madaniyati deyarli 1000 yilga qadimiylashtirildi. O‘zbekistonda shaharlashish

---

<sup>70</sup> Массон В. М. Древние цивилизации Средней Азии // Древние цивилизации. – М.: Мысль, 1989. – С. 61.

madaniyati esa bundan 3,5 ming yil (Jarqo‘ton) avval, ya’ni miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalari bilan belgilanadi. Qadimgi shaharlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ilk davlatlar tarixi bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Bular “Katta Xorazm” va “Qadimgi Baqtriya podsholik”lari edi. Antik davrga kelib esa ular o‘rnida, O‘zbekiston hududlarida bir necha qudratli davlatlar tashkil topdi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **I. Rasmiy adabiyotlar:**

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид: барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 425 б.
- 1.2. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Т. 5. – 423 б.
- 1.3. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 32 б.
- 1.4. Каримов И. А. Юксак маънавият–енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.6. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 439 б.
- 1.7. Каримов И. А. Она-юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент: НМИУ, 2015. – 325 б.

### **II. Adabiyotlar:**

- 1.1. Авеста: избранные гимны / Перевод с авестийского и комментарии профессора И. М. Стеблин-Каменского. – Душанбе, 1990.
- 1.2. Аскarov А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977.
- 1.3. Аскarov А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Ташкент, 1983.
- 1.4. Аскarov А., Ширинов Т. Древнебактрийский храм огня в Южном Узбекистане. Сб. Градостроительство и архитектура. – Ташкент, 1989.
- 1.5. Аскarov А, Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993.
- 1.6. Домокош Варга. Древний Восток. – Будапешт, 1979.
- 1.7. Дьяконов И. М. Города-государства Шумера. История древнего мира. Том 1. – Москва, 1983.
- 1.8. Дьяконов И. М. Ранние деспотии в Месопотамии. История древнего мира. Том 1. – Москва, 1983.

- 1.9. Зоҳир Аълам. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
- 1.10. Кабиров А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
- 1.11. Массон В. М. Экономика и социальный строй древних обществ» (в свете данных археологии). – Ленинград, 1976.
- 1.12. Массон В. М. Алтын-депе. – Ленинград, 1981.
- 1.13. Мэри Бойс. Зороастрейцы: верования и обычаи. – Москва, 1987.
- 1.14. Рахманов У. Керамическое производство эпохи бронзы южного Узбекистана. Автореф. на соискание канд. истор. наук. – Самарканд, 1987.
- 1.15. Сагдулаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
- 1.16. Сарианиди В. И. И здесь говорил Заратуштра. – Москва, 1992.
- 1.17. Сарианиди В. И. В поисках страны Маргуш. – Москва, 1993.
- 1.18. Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. – Москва, 1956.

## ANNOTATSIYA.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining asosiy maqsadi, mavjud manbalar yordamida Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Oltintepa manzil gohini kompleks tarzda o‘rganishdan iborat. Shuni hisobga olgan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O‘rta Osiyo hududidagi ilk dehqonchilik va shaharsozlik madaniyatining vujudga kelish jarayonlari tarixini o‘rganish;
- Bronza davri O‘rta Osiyo shaharlari tipologiyasini tadqiq etish;
- Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Oltintepa manzilgohi tarixini mavjud arxeologik va moddiy manbalar asosida tadqiq etish;
- Oltintepa manzilgohining shahar topografiyasini tahlil qilish;
- O‘rta Osiyo hududidagi ilk shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishga doir ilmiy xulosalar chiqarish.